

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA – MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” fakulteti

Bitiruv malakaviy ishi

**Mavzu: XITOIDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING O'ZIGA HOS
HUSUSIYATLARI**

Bajardi: 5342500 – “Xitoyshunoslik” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Azizov Jamshid Musulmon o'g'li _____

Ilmiy rahbar: g.f.d.professor,Soliyev A.S _____

TOSHIKEHT 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. XITOIDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	7
1.1. Xitoy iqtisodiy islohotlarning mohiyati, bosqichlari.....	7
1.2. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va uning tarkibiy tuzulishi.....	14
1.3. Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o`rni va rivojlanish istiqbollari.....	22
2-BOB. XITOIDA IQTISODIY ISLOHOTLARI TAJRIBASINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA QO'LLASH IMKONIYATLARI	42
2.1. Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida dastlabki aloqalarning o'rnatilishi.....	42
2.2. Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlining asosiy yo'nalishlari	47
XULOSA	54
ADABIYOTLAR RO'HATI	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan o'rin olgan Xitoy Xalq Respublikasi hozirgi kunda qudratli davlatlar hisoblangan AQSH, Yaponiya, Evropa Ittifoqi davlatlari va Rossiya bilan iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy texnikaviy rivojlanish bo'yicha raqobatlashish darajasiga chiqdi. Chunki, Xitoy bugungi kunda xalqaro maydonda o'zining xalqaro munosabatlari, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotidagi olib borayotgan siyosati bilan ajrali turadi va u muayyan zamonaviy salohiyatga egadir¹.

Hozirda Xitoy dunyoning 170dan ortiq mamlakatlari bilan ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham madaniy aloqalarni faol olib bormoqda. Oxirgi 30 yil ichida, ya'ni 1978 yildan so'nggi davrda, Xitoy iqtisodi va siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. 1979 – yildagi mamlakatda boshlangan iqtisodiy islohotlar jarayoni bugungi kunga kelib Xitoyni yuksak darajaga chiqishga asosiy sabab bo'ldi. Bu quyidagi islohotlar:

Birinchidan: Xitoy sotsialistik tizimni saqlab qolgan holda, bozor iqtisodiyotidan foydalanib kelmoqda. Bu bosqichda asosan rejali, markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish va mulkchilikning turli shakllarini tashkil etish orqali keyingi bosqichga zamin yaratildi va shu bilan birga xususiy korxonalarni ochish, ochiq iqtisodiy zonalarni barpo qilish hamda mamlakatda kop' qirrali iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, islohotlarning asosiy yo'nalishlari, eng birinchi navbatda qishloq xo'jaligi sohasi qilib belgilandi va alohida e'tibor qaratigan.

Ikkinchidan: Mamlakatda tashkil etilgan xo'jalik yurutish tizimini shakllantirishda va sanoatlantirish siyosatini amalga oshirishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan mohirlik bilan foydalanmoqda. Bu bosqich o'z navbatida ikki davrdan iborat bo'lib ular 1984 – 1988 yillar va 1988 – 1991 yillarni qamrab oladi. Birinchi davrda mamlakatda iqtisodiy o'sish ancha sezilarli bo'lib, unda asosan, rejali markazlashgan iqtisodiyot bilan birga, bozor iqtisodiyotini bevosita olib

¹ KarimovI.A..O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011.

borish o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Ikkinchi davrda esa Xitoy sanoatida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar natijasida Xitoy xalq xo'jaligining rivojlanish uchun yaxshi sharoitlar yaratildi.

Uchinchi: 1979 – yilda e'lon qilingan” Ochiq eshiklar “ siyosati mamlakatni butun dunyoga tanitib, xorijiy sarmoyalar jalb qilishga xizmat qilmoqda. Mazkur bosqichda asosan Xitoy o'zining “ ochiq eshiklar “ siyosatini muvaffaqiyatli olib borishi natijasida tashqi iqtisodiy aloqalarni ham bir muncha tikladi. Unda mamlakatga xorijiy sarmoyalar kirib kelishi uchun yaratilgan investitsion iqlim natijasida, chet el sarmoyalar kirib kela boshladi².

Ushbu islohotlar Xitoyning milliy rivojlanish xususiyatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar yo'nalishini taktik va strategik tomonidan aniq belgilab berdi. Hozirgi kunda Xitoy hukumati va Xitoy Kommunistik Partiyasi tomonidan belgilangan mamlakatning kelajak rivojlanish rejasi bo'yicha mamlakat iqtisodiyotini 2021 – yilgacha qisman va 2049 yilgacha to'liq yangilash ko'zda tutilgan. Shu o'rinda Xitoy Xalq Respublikasi singari O'zbekiston Respublikasi ham iqtisodiy islohotlar jarayoniga yuz tutib, hozirgi kunda ushbu jarayonni chuqurlashtirish bosqichi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol tashqi iqtisodiy strategiya yuritishni talab qiladi. Milliy iqtisodiyot sohalarini rivojlantiruvchi investitsiyalar oqimini faollashtirishda to'g'ri tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani hayotga astoydil tatbiq qilish maqsadidan chekinmaydi, chunki " O'zbekiston - Xitoy munosabatlarini mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega"³.

Hozirgi integratsiyalashuv jarayoni hamda murakkab globallashuv ta'siri ostida Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti tom ma'noda kamolot sari olg'a

² Xitoy Bosh statistika qo'mitasi ma'lumotlari, - Pekin, 2008.

³ Uza.expo.uz

qadam tashamoqda. Uning tashqi iqtisodiy muhiti esa ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga namuna vazifasini bajarmoqda.

Xitoyning "Ochiqlik siyosati" esa davlatning o'z kuchiga suyanishi bilan bir qatorda samarali tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun qulay atmosferani tashkil etmoqda.

Keyingi paytlarda Xitoyning ochiqlik siyosati global hususiyatlarini namoyon etmoqda. U nafaqat tashqi investitsiyalarga keng yo'l ochmoqda, balki xorijdagi xitoy investitsiyalari mablag'lari salmog'ini oshirmoqda.

Albatta, iqtisodiyot mehanizmlarining faol harakatga kelishi natijasida xitoy iqtisodiyoti jahon xo'jaligida munosib ishtirok etmoqda. Har qanday tadbirkor, yirik sarmoyador va albatta ishlab chiqaruvchilar xitoy bozori investitsion iqlimining mo'tadilligi sabab, o'z sarmoyalarini Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy tarmoqlariga kiritishda davom etmoqdalar.

Jahon tajribasidan, hususan, Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy strategiyasi shakllanishini o'rganish hamda tajribasidan keng foydalanish orqali O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Xitoy Xalq Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorligi istiqbollari o'rganib chiqish hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Xitoy davlati amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar jarayoni;
- Iqtisodiy islohotlarni bosichlari va mohiyati;
- Xitoy mamlakatini jahon xo'jaligida tutgan o'rni ko'rsatildi;
- Xitoy va O'zbekiston respublikalari bilan iqtisodiy aloqalari tahlil qilindi;
- Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari aniqlandi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xitoy Xalq Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllanish tendensiyalari, muammolar va istiqbollari xorijlik bir qator olimlar, jumladan, S.F.Sugirina, Aleksandr S, Rakovskiy S.N, hamda Xitoylik iqtisodchilar Xing Li Jing, Fam Thi Lan An, Szyan Lan, hamda o'zbek olimlaridan G.Melibayeva, E.Mahmudov, R.Alimov, B.Sadibekova, A.Sardorlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida va sohalar bo'yicha jihatlari o'z ifodasini topgan.

Mavzuning predmeti va ob'yekti. Mavzuning ob'yekti Xitoy Xalq Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi mamlakatlarining iqtisodiy islohotlari va tashqi iqtisodiy faoliyati istiqbollari hisoblanadi. Mavzuning predmeti esa Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi, mamlakatlarining o'ziga hos ustunlik taraflari hamda yangidan- yangi iqtisodiy islohotlarni va hamkorlik ishlarini jalb qilishdagi o'ziga hos yo'nalishlari hisoblanadi.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijalari Xitoy jahon xo'jaligida tutgan o'rni ko'rsatilganligi, O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy islohotlar olib borilgani va iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy hamkorliklar, iqtisodiy salohiyatlar, tavsiflanganligi, va iqtisodiy aloqalarini asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib berilganligi, Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari aniqlanganligida o'z aksini topadi.

Xitoy Xalq Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasi o'zaro aloqalar rivoji uchun olib borilayotgan ishlar va strategiyalarni istiqboldagi holatlarini o'rganish tashkil etadi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, 2 ta bob, 5 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. XITOIDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

1.1. Xitoy iqtisodiy islohotlarning mohiyati, bosqichlari

Xitoy Osiyo qit'asining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Tinch okeanning g'arbiy dengizlari bilan o'rab olingan. Xitoyning quruqlikdagi xududi 9,6 mln. kv. km. bo'lib, qirg'oq bo'ylab 18 ming kilometrlik chegarasiga ega. Xududiy suvining umumiy maydoni esa 4,7 mln. kv. km.ni tashkil etadi. Xitoy tabiiy boyliklarga juda boy mamlakat. Xitoy quruqlik orqali 14 ta, qirg'oq va dengizlar bilan ajralib turadigan 6 ta mamlakat bilan chegaradosh. Xitoy ko'pmillatli mamlakat xisoblanib, uning xududida 56 millat istiqomat qiladi. Xitoyning ichki xududlarida sotsialistik tizim xukmronlik qiladi. Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) yagona boshqaruv partiyasi xisoblanadi va XKP raxnomaligida mamlakatni boshqarishda ko'ppartiyaviylik xamkorligiga asoslangan siyosat olib boriladi.

Xozirgi vaqtda Xitoy 4 ta markaziy boshqaruvidagi shaxarlar, 23 ta viloyat (provinsiya), 5 ta avtonom rayon, 2 ta aloxida ma'muriy rayon. Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti – Pekin xisoblanadi⁴. Xitoy dunyo mamlakatlari bilan mustaqil tashqi iqtisodiy aloqalar olib boradi. XX asrni ikkinchi yarmidan boshlab Xitoy iqtisodiy rivojlanishini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr (1949-1978) - mamlakatning davlat sektori (davlat va jamiyatlashish korxonalari) ustun turuvchi markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi davr (1978 yil oxiridan xozirga qadar) esa iqtisodiy erkinlashuv, xo'jalikni boshqarishda bozor tamoyillariga bosqichma - bosqich o'tishga yo'naltirilgan.

1950 yillar boshlariga kelib urushlar sababli iqtisodiy jixatdan zaif agrar mamlakatga aylangan Xitoy hukumatiga Xitoy kommunistik partiyasining (XKP) kelishi va Xitoy Xalk Respublikasining (XXR) e'lon qilinishidan so'ng rivojlanishning sotsialistik yo'liga qadam qo'yildi va juda qisqa muddatda sanoatlashtirish amalga oshirildi. Sobik SSSR yordamida 300 dan ortik yirik

⁴ Sadibekova B.Dj. "Xitoy iqtisodiyoti" Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011.

zamonaviy sanoat ob'ektlari qurildi va qishloq joylarda kollektivlashtirish o'tkazildi va kommunallar tizimi tashkil etildi. 1950 - 1970 yillarda Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga mamlakatda ro'y bergan "katta sakrashlar" (1958 - 1960) va "madaniy inqilob" (1966 - 1976) kabi jiddiy siyosiy o'zgarishlar salbiy ta'sir ko'rsatdi⁵. Madaniy inqilob xalq xo'jaligini boshqarish tizimining izdan chiqishi va iqtisodiy taraqqiyotning orqada qolishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 1977 yilda ishchi va xizmatchilarning ish xaqi 1957 yilga nisbatan 28% ga pasaydi⁶.

"Katta sakrashlar" siyosatidan so'ng Xitoyning sobiq SSSR va ittifoq mamlakatlarining deyarli barchasi bilan iqtisodiy munosabatlari yomonlashdi. 1960 yillarda G'arb mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar yangi yo'nalishda olib borildi. Xitoyning AQSH va bir qator G'arb mamlakatlari bilan rasmiy munosabatlarining yo'qligi sharoitida mamlakat uchun G'arb texnologiyasi, asbob - uskunalarini jalb qilish va Xitoy maxsulotlarini jaxon bozoriga olib chiqishning muxim yo'li xisoblangan Gonkong bilan savdo munosabatlari jadal rivojlantirildi. 1970 yillarning oxirida Xitoyda iqtisodiy islohotlar yo'nalishi ("ochiq eshiklar siyosati") belgilanib olindi. Xitoydagi islohotlarning asosiy mazmuni rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish edi. Ammo islohotlarning aniq ravshan konsepsiyasini, yakuniy maqsadi belgilanmaganligi sababli tub o'zgarishlarning rasmiy modeli bir necha marta o'zgartirildi.

1984 - 1991 yillarda maxsus o'zgarishlar kiritilgandan so'ng iqtisodiy islohotlar aniq maqsadni sotsialistik rejali tovar xo'jaligi tizimini joriy qilish modeliga ega bo'ldi. Xitoydagi iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos jixati o'zgarishlarning bosqichma - bosqich amalga oshirilishidir. Bunda mamlakatning demografiyasi, iqtisodiy rivojlanishni, daromadlarini, xo'jalik yuritishdagi keskin xududiy tafovutlar inobatga olindi. Mamlakat "katta sakrashlar"dan charchadi, jadal sur'atlardagi iqtisodiy o'zgarishlar esa xalq noroziligiga sabab bo'lishi mumkin edi. 1978 yilda boshlangan bozor islohotlari kutilganidan xam ortiq natijalar berdi va iqtisodiy tizimning o'zgarishiga olib keldi.

⁵ Sadibekova B.Dj. "Xitoy iqtisodiyoti" Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011

⁶ ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. / под ред С.Ф.Сугырина. –М: Эксмо.2008.С.244

Iqtisodiy isloxlarni amalga oshirish jarayonida uch bosqichli uzoq muddatli reja belgilab olindi:

- qishlok xo'jaligida isloxtlar o'tkazish va tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosatini joriy etish (1970 yillarning oxiridan 1984 yilgacha):

- sanoatda davlat sektorini islox qilish (1984-1988 yillar);

- Xitoyning GATT/Jahon Savdo Tashkiloti tizimiga kirishi (1992 yil) bilan bog'liq iqtisodiy isloxtlar kompleksi.

Xitoyda iqtisodiy isloxtlar strategiyasining muxim vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- moddiy resurslarni direktiv rejalashtirish va markazlashgan taqsimot ta'sirini kamaytirish orqali narxlarni sekin - asta erkinlashtirish:

- davlat va korxonalar o'rtasida mulkka egalik qilish va xo'jalik yuritish xuquqini bir - biridan ajratish, davlat sektorining ulushi saqlab qolgan xolda, iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish:

- xududiy va maxalliy ma'muriyat moliyaviy bazasining xo'jalik xuquqlarini kengaytirish:

- dengiz oldi viloyatlarining rivojlanishini qo'llab - quvvatlash va xitoy diasporasi yashaydigan Gonkong, Tayvan kabi mamlakatlardan kapital jalb qilish:

- yuqori jamgarish normasi xisobiga iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish (1980 yillarda 30% dan ziyod, 1990 yillardan va hozirgacha 40% dan yuqori):

- moliya sohasida davlat nazoratini saqlab qolish.

Oilaviy pudrat tajriba sifatida dastlab kambag'al xududlarda 1978 yildan boshlab esa butun Xitoy bo'yicha joriy qilindi. 1983 yilga kelib xitoy dexqonlari " xalq kommunallari " tizimidan oilaviy pudrat tizimiga o'tishdi. Yer dexqonlarga uzoq muddatga ijaraga berildi (avvaliga 15 yilga, keyinchalik ijara muddati 30 yilgacha uzaytirildi), qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarida bozor narxlarida maxsulotning ma'lum qismini sotish imkoniyati paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida davlatning xarid narxlari xam oshirildi. Davlatning g'allaga bo'lgan monopoliyasi 1985 yilgacha saqlanib

turdi. 1980 yillarning ikkinchi yarmiga kelib bozor narxidagi qishloq xo'jaligi maxsulotlarining taxminan 60% sotildi (1978 yilda - faqat 8%).

Bu ko'rsatkich 1990 yilga kelib 80% gacha ko'tarildi, 2005 yilda esa qariyb 100% ni tashkil qildi⁷.

1970 yilning oxirida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo munosabatlarini kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosati e'lon qilindi. Shu maqsadda dengiz bo'yidagi viloyatlarda turli xil maxsus iqtisodiy xududlar tashkil qilindi. Ularning eng mashxurlari Shenchjen, Juxay, Shantou (Guandun provinsiyasi) va Syamenlardir (Futszyan provinsiyasi). Xitoyda tashqi iqtisodiy soxaning erkinlashuvi bosqichma - bosqich amalga oshirildi.

Dastlab, Tashki Iqtisodiy Aloqalar vazirligining eksport - import operatsiyalarini amalga oshirish monopoliyasi tugatildi , keyinchalik esa xududiy birliklar tarmoq va maxalliy tashqi savdo kompaniyalariga bo'lib berildi. Davlatning eksportni xarid qilish tizimi korxonalararo iqtisodiy shartnomalar tizimi bilan almashtirildi, eksportyorlar uchun valyuta ajratmalari tizimi joriy etildi. 1984 yilda⁸ davlat korxonalarida shartnoma tizimi kiritildi. Davlat zimmasiga soliq ajratmalarning belgilangan miqdori biriktirib qo'yildi, korxonaning kengayishi natijasida shakllangan daromad korxona ixtiyoriga qarab ishlatilishi mumkin edi.

Agrar isloxotlarga qadar davlat korxonalari o'z maxsulotlarini faqat davlat narxlarida sotgan bo'lsalar, isloxotdan so'ng ular o'z maxsulotlarining ma'lum miqdorini bozor narxlarida sotish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Sanoat sektoridagi isloxotlar qishloq xo'jaligi isloxotlariga qaraganda ancha mushkul kechdi. Mazkur isloxotlar to'la muvaffaqiyat qozonmadi va davlat sektori muammosi xal etilmadi. Xukumat davlat korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mulkchilik xuquqlarini nazorat qilish, subsidiyalarni taqdim etishni davom ettirdi. 1980 yillar boshidan qishloq xo'jaligida mexnat unumdorligining oshishi natijasida qishloq

⁷ ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. / под ред С.Ф.Сугырина. –М: Эксмо.2008.С.246

⁸ Tashqi iqtisodiy aloqalar Xitoy bo'yicha.

xo'jaligi korxonalarining martabasi oshdi (1978 - 1988 yillarda o'sishning o'rtacha yillik darajasi 28% ni tashkil qildi).

Qishloq joylardan shaxarlarga ko'chib boruvchi ishchi kuchi oqimini ushlab turish sharoitida bu korxonalar ortiqcha ish kuchining asosiy qabul qiluvchilariga aylandilar. Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiyotning davlat sektoriga tegishli bo'lib, oziq - ovqat va iste'mol tovarlari, qurilish materiallari va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ulangan. Ishlab chiqarilgan maxsulotlarining katta qismi eksportga chiqarildi. 1980 yillar o'rtalariga kelib Xitoyda ikki sektorli iqtisodiyot shakllandi: bozor sharoitida majburan faoliyat ko'rsatayotgan, markazlashgan rejalashtirish xamda ta'minotga asoslangan davlat korxonalari va o'sib boruvchi ishlab chiqarish bloki. Bu tizim o'z xarajatlariga ega bo'lib, xususan, davlatning arzon narxlaridagi resurslar xaridi va maxsulotlarni bozor narxlarida sotish amaliyotidan foydalana boshladi. 1990 yillarda bank, soliq va valyuta boshqaruvi tizimlari islox qilindi.

Davlat mulki soxasida esa jiddiy va bosqichma - bosqich islox qilish tadbirlari amalga oshirila boshlandi. 1994 yilda sodir bo'lgan bank isloxoti maxsus banklarni (Xitoy Banki, Xitoy Qishloq Xo'jaligi Banki, Xitoy Qurilish Banki, Xitoy Savdo - Sanoat Banki) tijorat banklariga o'zgartirish, yangi tijorat banklarining rivojlanishi va notijorat kreditlash uchun belgilangan uchta asosiy bank tuzishga qaratilgan edi. Pul - kredit operatsiyalarining yangi turlari qisqa muddatli va filiallararo kreditlash, trast operatsiyalari, kredit kartochkalarini xisob - kitobda ishlatish, qimmatbaxo qog'ozlar bilan bog'lik operatsiyalar rivojlandi. Soliq isloxotining asosiy mazmuni (1994 yil) - Xitoy korxonalarida mulkchilikning barcha shakllari uchun daromad solig'i bir xil belgilandi, soliq tushumlaridan markazlashgan byudjet ulushi ortdi. Soliq isloxotlarigacha bo'lgan davrda uzoq muddatli bitimlarda belgilangan me'yorlar asosida daromadning ma'lum qismi markazga yuborilib, maxalliy byudjetlarda to'planardi⁹. Bugungi kunda Qo'shimcha Qiymat Solig'ining 75% i va qator boshqa soliqdan bevosita markaziy byudjetga kelib tushadi.

⁹ Sadibekova B.Dj. " Xitoy iqtisodiyoti " Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011

Valyuta isloxoti natijasida 1994 - yilning 1 - yanvaridan banklararo valyuta birjasida xar kunlik savdo - sotiq natijalari asosida yuanning Xitoy Markaziy Banki tomonidan belgilangan yagona bozor kursi kiritildi (1994 yilga qadar baravariga ikkita valyuta kursi amal qilgan: rasmiy va bozor kursi, 1993 yilga kelib bozor kursida valyutaning 80% i sotib olinarda va sotilardi). Umuman, valyuta isloxoti Xitoyning Jahon Savdo Tashkilotiga kirish arafasida o'tkazildi va yuanni konvertatsiyalash yo'lidagi ilk bosqich xisoblandi¹⁰. 1990 yillar ikkinchi yarmidan boshlab davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Mudofaaning zamonaviy texnologiyalar sanoati, noyob metallar qazib chiqarish va monopoliyasi doirasida amal qiladigan soxalarini xususiylashtirish mumkin bo'lmagan.

Davlat energetika va transport korxonalarini xususiylashtirish jarayonini nazorat paketini o'z qo'lida saqlab qolgan xolda amalga oshirgan. Xususiylashtirishning jadallashuvi bilan davlat mulkining klassik tushunchasi o'zgarib boradi. Uning tarkibiga nafaqat davlat korxonasining o'zi, balki aksiyadorlik va aralash kompaniyalardagi nazorat paketi yoki oddiy ulushli paylar xam kiradi.

Muvaffaqiyatli iqtisodiy isloxotlar Xitoyni iqtisodiy o'sish darajasi bo'yicha jaxonda peshqadam mamlakatlardan biriga aylandi. Taxlillar ko'rsatishicha, Xitoyda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 1978 - 2010 yillarda 9,0% dan yuqori bo'ldi¹¹. Jaxon Banki ma'lumotlariga ko'ra esa oxirgi besh yil ichida, Xitoy iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 10% ga, 1990 - 2010 yillarda axoli jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki maxsulot xajmi 341,4 dollardan 4392,6 dollargacha, ya'ni 13,3 martaga o'sdi. Iqtisodchi J.Stiglits xisob - kitoblariga va ilmy pragnoziga qaraganda Xitoy iqtisodiyoti oxirgi 20 yil davomida jami rivojlanayotgan mamlakatlarning qa'riyb yarim yalpi iqtisodiy o'sishini ta'minlab berdi¹². 2008 yilda Xitoy iqtisodiyoti nominal qiymat bo'yicha Germaniyani va 2010 yilga kelib Yaponiyani quvib o'tdi. 2040

¹⁰ Александр С. Деньги от председателя, или финансовая стабилизация в Китае./Центразия, 07.04.2003. <http://www.cenrasia.ru/>

¹¹ Статистика Китая.

¹² Синглиц Дж. Сравнение китайской и зарубежной экономических систем. 2001. С.4

yilda esa AQSHni orqada qoldirib, jaxondagi yirik iqtisodiyotga aylanishi kutilmoqda.

Xitoy iqtisodiy isloxotlarining jiddiy yutuqlariga qaramay iqtisodiy o'zgarishlar eski muammolarni keltirib chiqardi:

-axolining o'ta zichligi va ishchi kuchining ortiqchaligi, qishloq joylarda axolining 53% idan ziyodi yashashi, qishloq xo'jaligida esa axolining 49% i band;

-atrof - muxitning buzilishi, yer fondining kamayib borishi, suv resurslarining ifloslanishi (daryolarning 80% i zararlangan) - rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ekologik zarar mamlakat YAIMning 10% iga teng¹³;

-xududlar bo'yicha iqtisodiy o'sish darajasining notekis rivojlanishi. Xitoyda aslida bir nechta xududiy iqtisodiyot mavjud. Xitoy xududini shartli ravishda uch iqtisodiy xududga bo'lish mumkin: 1) Sharqiy dengiz bo'yi mintaqasi (Pekin, Tyanszin, Shanxay, Guandun, Xaynan); 2) Markaziy; 3) G'arbiy. Iqtisodiy jixatdan eng rivojlangan xudud mamlakat sharqida joylashgan dengiz bo'yi xududi xisoblanadi. Bu xudud Xitoy umumiy maydonining 11 % ini, jami axolining qariyb 40% i mana shu xudud axolisini tashkil qiladi. Bu xududlarda davlat korxonalari ulushi va sanoatning xomashyo tarmoqlari korxonalari nisbatan ancha kam joylashgan (Guandun, Szyansu provinsiyalari). Rivojlanish darajasi va surati bo'yicha Markaziy rayon ikkinchi o'rinda turadi. G'arbiy xududlar esa umumiy maydoniing 18% ini va jami axolining 20% ini tashkil qiladi¹⁴;

- daromadlarda tabaqalashuv darajasining o'sishi. Xitoyda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarga egaligi bilan bir qatorda ijtimoiy tabaqalashuv darajasi xam keskinlashib bormoqda. Bir tomondan, qishloq va shaxar axolisi o'rtasida, ikkinchi tomondan esa, mamlakat dengiz bo'yi provinsiyalari va kambag'al ichki xududlari o'rtasida farq yiriklashib bormoqda;

- mamlakatda 10% yuqori daromad oluvchilarning miqdoriga umumiy daromadlarning 45% i to'g'ri keladi, 10% kambag'al yashovchilar esa, fakat

¹³ Раковский С.Н. Китай в современном мире. // География №18. 2007.

¹⁴ MelibayevaG.A., GaziyeV.F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

1,4% ni tashkil kiladi. Xozirgacha Xitoyda mamlakat axolisining aksariyat qismini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy kafolatlarining mukammal tizimi xali xam ishlab chiqilmagan. Xususan, 1993 yilda shaxarlarda yashovchilarsh 71% tibbiyot sug'urtasiga ega bo'lgani xolda bu ko'rsatkich 2003 yilda 43% ga, qishloq axolisida esa atigi 3% ga teng bo'ldi;

- shaxar va qishloq axolisini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash miqyoslari tafovutini xisobga olgan xolda, qo'shimcha soliqlarni olib tashlagandan keyingi daromadlar o'rtasidagi tafovut extimoli 5/1-6/1 ga yetishi mumkin, bu esa dunyo buyicha ijtimoiy tabaqalashuvning eng yuqori darajasi xisoblanadi. Mamlakatning sharqiy, markaziy, g'arbiy provinsiyalari o'rtasidagi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichining xududiy ajralishida esa 1980 yildagi 1,53 dan 1,89 marta, 2002 yilda 2,03 dan 2,57 martagacha oshdi;

- kambag'allik miqyosi xaligacha axamiyatli xisoblanadi. Mamlakatda kambag'allik darajasini pasaytirish borasida samarali chora - tadbirlar amalga oshirilishi natijasida absolyut qashshoqlik darajasida yashovchilar 1978 yilda 250 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, bu kursatkich 2006 yilda 21,5 mln. kishigacha qisqardi. Shunga qaramasdan Xitoyda kunlik xarajati 1,25 dollarga teng bo'lganlar ulushi 15,9% ni tashkil etadi;

- resurslarning samarasiz ishlatilishi. Xitoyda bir dona maxsulot ishlab chiqarishga rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 30% ko'p energiya sarfalanadi. Sanoatda mexnat unumdorligi AQSHga nisbatan 5% ni tashkil etadi.

1.2. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va uning tarkibiy tuzulishi

Xitoy erishgan iqtisodiy muvaffaqiyatlar, shubxasiz yigirma yildan ortiq vaqt davomida olib borilayotgan iqtisodiy isloxotlar natijasidir. Bu muvaffaqiyatlar natijasida Xitoy jaxon xo'jaligining ajralmas bir qismi sifatida xalqaro mexnat taqsimotida o'zining aloxida o'rniga ega. Xitoy yirik agrar-industrial mamlakat bo'lgani bois, iqtisodiy taraqqiyotining asosiy maqsadi sanoat ishlab chiqarish darajasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallash xisoblanadi. Shu bilan birga iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etish, yalpi ichki

maxsulot xajmi va uning axoli jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorini oshirish maqsadida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab turishi lozim. Xitoydagi iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi asosiy kuch ichki iste'mol, ichki talab va mamlakat axolisining yuqori sur'atlar bilan ko'payishidir. Xitoyda iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi asosiy manbalar quyidagilar xisoblanadi:

- mexnat resurslari;
- tabiiy resurslar;
- barqaror jamg'arish investitsion mexanizmining shakllanishi;
- xitoy iqtisodiyotining yuqori, barkaror sur'atlar bilan o'sishi;
- quyidagi qayta o'zgarishlar jarayoni bilan bir vaqtda ro'y berayotgani;
- ijtimoiy mulkning etakchi mavqesining saqlanib qolishi sharoitida ko'p ukladli iqtisodiyotga o'tish;
- natural va yarim natural iqtisodiyotning tovar - pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga aylanishi;
- tovar - pul munosabatlari, erkin narxlarning shakllanishi va bank tizimining islox etilishi¹⁵.

Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi asosiy omil sanoat isloxotlari xisoblanadi. Taxlillar ko'rsatishicha, iqtisodiy isloxotlargacha bo'lgan davrda iqtisodiy o'sish sur'atlari urtacha 5,3% ni tashkil etgan bo'lsa, sanoat isloxotlari davrida bu kursatkich urtacha 10,5% ni tashkil etgan. Iqtisodchi olimlarning fikricha, Xitoy sanoat isloxotlarining muvaffaqiyatli omillari quyidagilardan iborat¹⁶.

Birinchidan, davlatning iqtisodiyotdagi roli. Davlat asosiy fondlarga sarflanayotgan mablag'larning asosiy investori xisoblanadi. Xususan, 2007 yilda byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ajratilgan mablag'lar xajmi yalpi ichki maxsulotga nisbatan 23,8% ni tashkil etdi.

Ikkinchidan, yuqori jamg'arish normasining mavjudligi. Xalqaro amalyotning ko'rsatishicha, iqtisodiyotda modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy

¹⁵ Sadibekova B.Dj. "Xitoy iqtisodiyoti" Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011

¹⁶ Мировая экономика и международные отношения. №6. 2009

o'zgarishlarni amalga oshirish orqali rakobatbardosh iqtisodiyotni yaratgan mamlakatlar uzoq davr mobaynida yuqori investitsion faollikni namoyish etishgan.

Uchinchidin. Eksport xududlarni barpo etilishi. Mamlakatda eksport xududlarini tashkil etish 1979 – yildan boshlangan bo'lib dunyo mamlakatlari bilan ilmiy – texnik xamkorlikni rivojlantirish, sanoatning yangi tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarish kooperatsiysi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan. Iqtisodiy ochiqlik dengiz soxili, mamlaktning ichki va chegaraga tutash xududlari, Yanszi daryosi xavzasi orqali amalga oshirildi. Xitoy erkin iqtisodiy xududlarini yaratishda katta xajmdagi kapital quyilmalar talab etilgan va bu quyilmalar bosqichma - bosqich amalga oshirilgan. 1995 yildayoq ushbu xududlarga asosiy kapitalga sarflangan kapital quyilmalarning 56,3% i yo'naltirilgan. Agar Xitoyda investitsiyalar YaIMga nisbatan yuqori sur'atlarda usganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, u xolda eksportga yo'naltirilgan strategiyaning naqadar maqsadli amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. XX asr 90- yillarining ikkinchi yarmidan boshlab eksport ishlab chiqarish xududlariga yo'naltirilgan davlat va xususiy investitsiyalar ulushi jami investitsiyalar xajmining yarmidan oshib ketgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarning 70% dan ortiq qismi bu xududlarga yo'naltirilgan. 2007 yilga kelib eksport xududlarining mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 59,5% ni, bu xududlardagi korxonalarning mamlakatdagi jami korxonalar sonidagi ulushi esa sanoatda 62,5% ni tashkil etgan¹⁷.

To'rtinchidan, xususiy sektorning rivojlanishi. Isloxotlar davrida ko'p ukladdi bozor xo'jaligiga asos solindi. Mamlakat Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lganidan so'ng xususiy sektor uchun ilgari yopiq xisoblangan iqtisodiyotning elektroenergetika, kommunal xizmat, neft soxasi, temir yo'l, fuqaro aviatsiyasi kabi soxalarida xususiy kompaniyalar faoliyati uchun imkoniyatlar birmuncha kengaytirildi. Xitoyda davlat korxonalarining ulushi 1997 yilda 262 mingtani tashkil etgan bulsa, ularning soni 2008 yilda 110


¹⁷ Мировая экономика и международные отношения. №6. 2009. С.78

mingtagacha qisqargan va mamlakat YaIMning 20% dan kamroq qismi bu sektorda yaratildi. Shunga qaramasdan asosiy iqtisodiy resurslar - kredit va er davlat ixtiyorida qolgan. Davlat ixtiyoridagi yirik iqtisodiy nochor korxonalar subsidiyalar, imtiyozli kreditlar yordamida qo'llab - quvvatlanadi va 2009 yilda ularning soni 183 tani tashkil etgan.

Beshinchidan, Xitoy ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarining (Ilmiy Tadqiqot va Tajriba Konstruktorlik Ishlari) zamonaviy bazasini shakllantirish siyosatini bosqichma - bosqich amalga oshirmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlar ichida kengaytirilgan ilmiy tadqiqot bazasiga ega bo'lgan birdan - bir mamlakat xisoblanadi. Ilmiy Tadqiqot va Tajriba Konstruktorlik Ishlariga xarajatlar 1990 yillarning o'rtalarida YAIMga nisbatan 0,57% ga teng bo'lgan xolda, bu ko'rsatkich 2006 yilda 1,3% ga teng bo'lgan. 2020 yilga kelib bu kursatkichni 2,5% gacha oshirish va o'rtacha yiliga 370 mlrd. dollarga etqazish rejalashtirilgan.

Oltinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosatining asosiy omili iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar xisoblanadi. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotga investitsiyalarni joylashtirishda etakchilikni saqlab qolmoqda va investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili xisoblanadi. Masalan, 2009 yilning birinchi yarmida Xitoyda investitsiyalar, iste'mol va eksport iqtisodiy o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda YaIM investitsiyalar ta'sirida 6,2% ga va iste'mol ta'sirida esa 3,8% ga qo'shimcha o'sgani xolda, eksportning qisqarishi tufayli 2,9% ga pasayganligini kuzatish mumkin. Xitoy dunyoning boshqa mamlakatlari singari XX asrning ikkinchi yarmida miqdoriy va sifat o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Mamlakat axolisi 2,3 baravarga (1952 yilgi 576 mln. kishidan 2011 yilda 1 mlrd. 338 mln. kishiga) ko'paydi (1.2.1-jadval).

**Xitoyning xalqaro mexnat taqsimotidagi o'rnining ortib borishi
diagramma ko'rinishda¹⁸**



XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asrning boshlariga qadar ish bilan band axoli ulushi 36% dan 56% ga qadar oshdi. Axolining 77% ga yaqini 16 yoshdan kattalar tashkil etadi. XXI asrning boshiga kelib ishlovchilar soni 711,5 mln. kishiga etdi, shundan 212,7 mln. kishi shaxarlarda ishlaydi.

Shu yillar mobaynida bandlik tarkibi tubdan o'zgarib, shaxarlarda ishlovchilar soni deyarli 8,5 baravarga, qishloqlarda esa ularning ulushi 2,7 baravarga oshdi¹⁹. Shaxarlarda ishlovchilar sonining ortishi asosan davlat sektorining kengayishi natijasida yuz berdi. Shuningdek, bandlikning xududiy va tarmoq tarkibi xam sezilarli darajada o'zgardi. Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan faoliyatning ko'plab turlari qishloqlarga xam yoyildi. Bu davrdagi asosiy ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar agrar mamlakatni agrar - industrial mamlakatga aylantirdi.

Natijada mamlakat o'z iqtisodiy va xarbiy saloxiyati bilan kelajakda dunyoga bevosita ta'sir qila olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. XXI asrning


¹⁸ Международная организация труда – статистика 2011г.

¹⁹ Михеев В. Китай. Мировая экономика и международные отношения. №7. 2004. С.48

boshlariga kelib Xitoy iqtisodiyoti tarkibi industrial - agrar tarkibga ega bo'ldi. Isloxotlar davrida YaIM tizimida qishloq xo'jaligining ulushi 28,0% dan 2010 yilga kelib 10,0% gacha qisqardi, sanoat, qurulish va xizmatlar ulushi esa 62% dan 90,0% gacha oshdi (1.2.2- jadval).

1.2.2-jadval

Xitoy yalpi ichki maxsulotining tarmoq tarkibi diagramma ko'rinishda²⁰



2010 yildan 2013 yilgacha Xitoy YaIMning 46,8dan 49,7%gacha oshdi va bular sanoat va qurilish xissasiga to'g'ri keldi. Taxlillar ko'rsatishicha, 2010 yildan 2013 yilgacha Xitoy jaxon qayta ishlash sanoati maxsulotlarining 19,8% ini ishlab chiqargan.

Xitoy XXI asrning boshlariga kelib qator tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlarga ega bo'ldi. Xususan, po'lat eritish, ko'mir va oltin qazib chiqarish, sement, kimyoviy o'gitlar, televizorlar ishlab chiqarish, shuningdek, paxta va mevalar etishtirish bo'yicha jahonda birinchi o'rinni, elektroenergiya, kimyoviy tola, paxta maxsulotlari, go'sht, choy ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

Xitoy iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarini energetika, transport, metallurgiya, kimyo sanoati va og'ir sanoat tashkil etadi. Uning tayanch tarmoqlari

²⁰ XXRning statistik yillik to'plami, turli yillarda.

esa mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektronika, to'qimachilik va oziq - ovqat sanoatidan iborat. Elektronika, aerokosmik sanoat, yangi texnologiyalar kabi tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishda alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siyosatdagi o'zgarishlar investitsiyalash sohasidagi xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini ajratib ko'rsatishni taqozo etadi. Xitoyning dunyodagi raqobatbardosh maxsulotlari to'qimachilik va kiyim - kechaklar xisoblanadi. Xitoy to'qimachilik sanoati bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Shu sababdan ham bu sohada mamlakat eksporti dunyoning barcha mamlakatlari va qit'alariga kirib borgan. Zamonaviy Xitoy to'qimachilik sanoatining xususiyatli jixati shundaki, bu soha xunarmandchilik darajasidan yirik miqyosdagi ishlab chiqarishga qadar rivojlanib borgan. To'qimachilik sanoati bilan bir qatorda tikuvchilik uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Shuningdek, Xitoy poyavzallar ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda birinchi o'rinda turadi. Xozirgi vaqtda mashinasozlik va elektronika sanoatida ham sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda. Ishlab chiqarishga xorijiy texnologiyalar bosqichma - bosqich qo'llanib borilmoqda. Iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish ustuvor soxalar sifatida belgilab qo'yilishi natijasida

Xitoy elektr jixozlarini ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda etakchi o'rinda turadi. Xususan, mamlakat televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi.

Xorijiy mutaxassislarning fikricha, Xitoy televizorlarining o'rtacha xizmat muddati 40 ming soatgacha etadi. Bu esa jaxon standartlaridan yuqori xisoblanadi.

Xitoy televizorlardan tashqari jaxon bozoriga stereo va video kassetalar, kompyuterlar yetqazib beradi. Shu bilan birga Xitoy elektronika bozorining ba'zi soxalarida, jumladan, o'tkazgichlar ishlab chiqarish sohasida orqada qolmoqda. Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini pasaytirish bilan birga xitoy xukumati inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha pul va fiskal

siyosati bilan bog'lik turli chora - tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitiga Xitoy markazlashgan Xukumat tizimi rivojlangan demokratik mamlakatlarga qaraganda tezroq moslasha oladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda bir qarorga kelish uchun ko'p vaqt talab etiladi.

2008 yil 29 sentyabrda Vakillar Palatasi (AQSH Kongressining quyi palatasi) moliyaviy muassasalarning zarar ko'rgan aktivlarni olish uchun umumiy fondan 700 mlrd. dollardan foydalanish yo'li bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirish to'g'risida qonunni rad qilgandan so'ng, dunyo moliyaviy bozorlarida inqiroz boshlandi, ammo Xitoy bu kabi vaziyat izdan chiqarishini tassavur qilish qiyin. Xitoy xukumatining inqirozga qarshi dasturi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2009 yilda Xitoy iqtisodiy o'sish sur'ati 8,7% ni tashkil etdi. Shu davr ichida 2,6 mln. yangi ishchi o'rinlari yaratildi, shaxar va qishloq axolisining daromadlari mos ravishda 1,2 va 6,8% ga oshdi.(1.2.3-jadval)

1.2.3-jadval

Xitoy xukumatining inqirozga qarshi kurash dasturining xarajatlar tarkibi jadval ko'rinishda.²¹

	Jami moliyaviy mablag' 2008— 2010 yy., mlrd. Yuan
Jami	4000
Uy-joy qurilishga	400
Qishloq infratuzilmasi (suv bilan ta'minlash, elektroenergiya. maxalliy yo'llar)	370
Transport (temir yullar, aeroportlar, avtomagstrallar)	1500
Sog'likni saqdash va ta'lim (maktablar va kasalxonalar qurish)	150
Energetika va atrof-muxit ximoyasi	210
Innovatsiyalar	370
Sichuan provinsiyasida yer qimirlashi tufayli zarar ko'rgan hududlarni tamirlash, 2008 y.	1000

²¹ www.chinaeconomic.org/index

Xitoy hukumati 2008 yilda moliyaviy inqirozga qarshi chora - tadbirlarni amalga oshirish uchun 585 mlrd. doll. sarfladi. Mazkur mablag'lar Xitoy iqtisodiyotining yengil sanoat, mashinasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, po'lat eritish, informatsion texnologiyalarni rivojlantirish, neftkimyo, logistika, rangli metallurgiya kabi tarmoqlariga yo'naltirildi. Xitoy ASEAN davlatlari bilan birgalikda investitsiya xamkorligi bo'yicha 10 mlrd. dollar²²ga teng miqdorda Fond tashkil etishni rejalashtirgan. Fond mablag'lari Xitoy-ASEAN erkin savdo zonasini tashkil etishning birinchi qadami xisoblanadi. Xitoy hukumatining chora – tadbirlari, inqiroz oqibatlarini kamaytirish bo'yicha choralar davlat xarajatlarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi. Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan inqirozga qarshi choralar xitoy iqtisodiy siyosatning inqiroz boshlanmasdan e'lon qilingan uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi.

1.3. Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiy taraqqiyotning islohot davri (1979-2012yy.) o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati 8 foizdan oshgan, bu esa oldingi 3 o'n yillik ko'rsatkichlardan sezilarli darajada past.

Xitoyga bag'ishlangan ko'plab nashrlar, tahliliy materiallar, daydjestlar va statistika ko'rsatkichlarini tahlil qilib, Xitoyning mislsiz iqtisodiy o'sishiga sabab bo'lgan beshta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. XXR iqtisodiyotida davlatning tutgan samarali o'rni;
2. Ko'plab ishchi kuchi resurslari hamda ish haqi yuqori bo'lmagan holda ularning sifati tobora oshib borishi;
3. Jamg'armalar va investitsiyalar ulushining yuqoriligi (30 foizdan ortiq, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa 45 foizgacha), unga qo'shimcha, avvalo, yuqori texnologiya sohalariga chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha samarali strategiya;

²² Xitoyning jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish dasturi.

4. “Ochiq iqtisodiyot” (“kaifan”), u rivojlanishning eksportga yo’naltirilgan modeliga asoslangan bo’lib, valyuta tushumini oshirish hisobiga texnologiya va ilm-fanga asoslangan iqtisodiyotni tashkil qilish, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o’zlashtirishni, zamonaviy sanoat logistikasi chizmalarini tadbiq qilishni nazarda tutadi;
5. Xitoyning qulay geografik o’rinda joylashganligi va tabiiy resurslari. Hudud shakllanishi tarixiy jarayoni davomida janubiy va shimoli-g’arbiy yo’nalishda Tinch okeaniga chiqish yo’li yuzaga kelgan, mamlakat hududida Tinch okeani qirg’oqlaridan Yevropa mamlakatlariga qisqa yer usti yo’llari mavjud. Xitoy hududining kattaligi bo’yicha Rossiya va Kanadadan keyin dunyoda 3-o’rinda turadi²³.

Zamonaviy Xitoy iqtisodiyotining o’ziga hos hususiyati – uning tashqi bozorga qaramligidir. Eksport hajmi bo’yicha XXR dunyoda 1-o’rinda turadi. Eksport davlat valyuta daromadining 80 foizini beradi. Eksport sohalarida qariyb 20 mln kishi band. Tashqi bozorga sanoat va qishloq xo’jaligi yalpi mahsulotning 20 foizi chiqariladi. Eksport nomenklaturasi 50 000 dan ziyod nomdagi mahsulotlardan iborat. Hozirgacha poyabzal, kiyim-kechak va o’yinchoqlar eng raqobatbardosh xitoy mahsulotlari bo’lib qolmoqda. Biroq elektronika, velo - moto va avtotexnika transport va qurilish mashinasozligi eksporti ham faol rivojlanib bormoqda. XXR to’qimachilik sanoati – dunyoda birinchi o’rinda turadi, shuning uchun ushbu sanoat mahsulotlari dunyoning ko’plab mamlakatlariga eksport qilinadi.

XXR 182 mamlakat bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari o’rnatgan. Ulardan 80 tasi bilan hukumatlararo savdo kelishuvlari va bayonnomalari imzolangan. Xitoyning asosiy savdo hamkorlari rivojlangan kapitalistik davlatlar, birinchi navbatda, AQSh, Yaponiya, G’arbiy Yevropa mamlakatlari. Xitoy tashqi savdo aylanmasining 55 foizi ushbu davlatlar hissasiga to’g’ri keladi.

²³ Мировая экономика и международные отношения. №6. 2009

Xitoy milliy iqtisodining dunyo xo'jaligida qatnashishi masalasi borasida aniq fikr bildirish qiyin bo'lsada, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etish darajasi bo'yicha Xitoy xo'jaligini ochiq xo'jalik desa bo'ladi. Xitoy yalpi ichki mahsulotida tashqi savdo ulushi rasmiy valyuta kursi bo'yicha Syangangsiz hisoblanganda, 1990-2004-yillar davomida 30.4 foizdan 70 foizgacha ortdi. Yuan harid qobiliyati bo'yicha hisoblaganda xo'jalik ochiqligi ko'rsatkichi uncha katta emas – YaIMning 15-16 foizi, bu esa xitoy xo'jaligi tashqi almashishga uncha bog'liq emasligidan dalolat beradi. Tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning yetakchi shakli hisoblanadi.

Zamonaviy Xitoy iqtisodiyoti uchun xos bulgan muxim xususiyat - bu mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlarga bog'likligidir. Xitoy eksport xajmi bo'yicha dunyoda 1 o'rinni egallaydi va eksport mamlakat valyuta tushumlarining 80% ini beradi. Iqtisodiyotning eksport tarmoqlarida 20 millionga yaqin kishi ishlaydi. Tashqi bozorlarga sanoat va qishloq xo'jaligi yalpi maxsulotining 20% i chiqariladi. Mamlakat eksportining tovar tarkibi 50 mingdan ortiq turdagi maxsulotlardan iborat. Poyavzal kiyim - kechak va o'yinchoqdar dunyo bozorlarida eng raqobatbardosh maxsulotlar sanaladi. Shu bilan bir qatorda elektronika, velosiped, motosikillar, aviatexnika, transport va qurilish mashinasozligi eksporti xam jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xitoy to'kimachilik sanoati dunyoda etakchi o'rinni egallaydi. Xitoy tashqi savdo aylanmasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xitoyda 2000-2010 yillarda tashqi savdo aylanmasi 6,3 martaga , ya'ni 474,3 mlrd. dollardan 2 trln. 973 mlrd. dollargacha ortdi²⁴

Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi ta'sirida Xitoy tashqi savdosining ko'rsatkichlari birinchi marta 2001 - yilga nisbatan pasaydi. Moliyaviy inqirozning chuqurlashuvi va Xitoy tovarlariga tashqi talabning qisqarishi mamlakat eksporti xajmining pasayishiga olib kelishi mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada eksportga yo'naltiriltanligi sharoitida Xitoy

²⁴ Гелбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения, №11, 2011.С.66

jaxon bozoridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy xolatga bevosita bog'lanib boradi. Mamlakat tashqi savdosi saldosing o'zgarishi ko'plab vaqtinchalik va doimiy omillar orqali izoxlanishi mumkin. Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining ta'sirida mamlakat eksportining qisqarishi va valyuta tushumlarining kamayishiga qaramasdan, Xitoy tashqi savdoni rag'batlantirishga xarakat qilmoqda. Taxlillar ko'rsatishicha, Xitoyning eksport maxsulotlari xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka ega va bu maxsulotlarga bo'lgan talab muayyan vaqtga qadar saqlanib qolishi mumkin.

Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi Xitoy tashqi savdosida 2008 yilning ikkinchi yarmidan salbiy ta'sir o'tkaza boshladi. Tashqi talabning pasayishi natijasida Xitoy tashqi savdosi 2009 yilda 2,2 trln. dollarni tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich 2008 yilga nisbatan 13,9% ga qisqardi. Xitoy hukumati tashqi savdoni rag'batlantirish uchun quyidagi chora - tadbirlarni ishlab chiqdi.

Birinchidan, tashqi savdo tashkilotlari oldiga yangi bozorlarni izlash va o'zlashtirish vazifasi qo'yildi.

Ikkinchidan, eksport bojarining xajmi qayta ko'rib chiqildi.

Uchinchidan, 2008 yilning dekabrda 3770 mingta eksport tovarlari bo'yicha Qo'simcha Qiymat Solig'ini qaytarish stavkalari pasaytirildi. Bu maxsulotlar Xitoy eksporti xajmining 28% ini tashkil etadi²⁵.

Xitoy hukumati tomonidan tashqi savdoni inqirozdan keyingi davrda rivojlantirish maqsadida " yo'l xaritasi " e'lon qilindi. Ushbu ma'ruzaga muvofiq 2020 yilga borib mamlakat tashqi savdo aylanmasi 5,3 trln. dollarga, jumladan, tovarlar savdosi 4,3 trln. dollarga, xizmatlar savdosi esa 1 trln. dollarga o'sishi bashorat qilinmoqda²⁶.

Fikrimizcha, Xitoy eksportining pasayish sur'atlari vaqtinchalik xolat xisoblanadi. Chunki, bir tomondan, xitoy eksporti past tannarxi tufayli raqobatbardosh xisoblansa, ikkinchi tomondan, Xitoy aksariyat maxsulotlar


²⁵ www.economist.com

²⁶ <http://russian.people.com.cn>

bo'yicha jaxon bozorida monopol mavqega ega. Misol uchun, 2008 yilda 10 mlrd. juft poyabzal (jaxon ishlab chiqarish xajmining $\frac{1}{2}$ qismi), jaxon o'yinchoqlar ishlab chiqarish xajmining 75% i, jaxon guruch etishtirish xajmining 35% i, energiya tejovchi lampalarning 85% idan foydalanilgan, cho'chqa go'shtining 50% i, o'rdak va goz go'shtlarining 75% i, o'g'itlarning 30% i, stanoklarning 50% i, musiqa asboblarning 81% , yangi yil sovg'alarining 70% i, rangli televizorlarning 98% i Xitoyda ishlab chiqarilgan²⁷. Zamonaviylashib borayotgan Xitoy eksportining tovar tarkida xam ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Taxlillar ko'rsatishicha, 1980 yillarning birinchi yarmida eksportda birlamchi maxsulotlar (qishloq xo'jaligi maxsulotlari, neft, minerallar) ustun turgan bo'lsa, bu tovarlarni sotish uchun jaxon bozorida aloxida marketing xizmati kerak bo'lmagan. 1980 yillar o'rtasidan boshlab Xitoy eksportida bu gurux tovarlar ulushi pasayib, tayyor maxsulotlar ulushi ortdi. Misol uchun, 2010 yilda tayyor sanoat maxsulotining solishtirma ulushi xitoy eksportida 93,6% ni tashkil etdi. Mashina - texnika maxsulotlari, plastmassa, tibbiyot va optika asbob - uskuna, temir va pulat - Xitoy eksportining asosiy tovar maxsulotlari xisoblanadi. Importda esa mashinalar, asbob - uskuna, transport vositalari, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan maxsulotlar, neft va boshqa birlamchi maxsulotlar yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, 2010 yilda Xitoy importining 34,5% i birlamchi maxsulotlardan iborat bulgan.(1.3.1-rasm)

²⁷ www.economist.com

Xitoy eksporti tovar tarkibidagi o'zgarishi, diagramma va jadval ko'rinishida (jamiga nisbatan foiz xisobida)²⁸




Xitoy eksport maxsulotlarning sifatiga keladigan bo'lsak, Shimoliy Amerika, Evropa Ittifoki va Yaponiyaga eksport qilinayotgan maxsulotlar yuqori sifat standartlariga ega. Bu maxsulotlar asosan Xitoyning dengiz bo'yi provinsiyalarida joylashgan erkin iqtisodiy xududlarida ishlab chiqariladi. Shu bilan birga Xitoyning ichki va shimoliy xududlarida joylashgan korxonalar eski, mexnat unumdorligi past texnologiyalar bilan jixozlanganligi tufayli, bu korxonalarda ishlab chiqarilgan maxsulotlar ko'pincha dunyoning mashxur firmalari mahsulotlariga o'xshash qilib (koopirativ) ishlab chiqariladi va arzonligi tufayli past daromadi axoli o'rtasida yuqori talabga ega bo'ladi (masalan: MDX mamlakatlari).

Xitoy dunyoning birinchi 82 ta mamlakati bilan savdo - iqtisodiy aloqalarolib boradi. 80 ta mamlakat bilan hukumatlararo savdo shartnomalari imzolangan. Xitoyning asosiy savdo xamkorlari Yaponiya, AQSH, Evropa Ittifoqi mamlakatlari xisoblanadi. Misol uchun, 2010 yilda Xitoy tovarlar eksportining 45,4% bu mamlakatlar xissasiga to'g'ri keldi. (1.3.2-jadval).


²⁸ <http://www.chinawindow.ru>

**Xitoyning eksport va import soxasidagi asosiy savdo xamkorlari,
2013 y.(jamiga nisbatan foiz xisobida)²⁹**

Eksport



Import



:

²⁹ www.china.gov.eport,import.list.ru

Xitoy 15 yillik muzokaralardan so'ng 2001 yilning 11 dekabrda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'ldi. Xitoy iqtisodiyotining ochiqligi qator rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qisqa muddatli istiqbolga salbiy ta'sir etishi, uzoq muddatli istiqbolga esa, bu xolat nafakat Xitoy, balki uning tashqi savdo xamkorlari uchun ijobiy oqibatlariga olib keladi.

Xitoy uchun Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishdagi rag'batlantiruvchi omillar iqtisodiy isloxlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ichki to'siqlar va mamlakat iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini barqaror ushlab turishni ta'minlovchi savdo manfaatlarini ximoya qilish bilan bevosita bog'liq. Shunga qaramasdan ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar Xitoyning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi ularning dunyo bozoridagi eksport imkoniyatlarining qisqarishi, xorijiy investitsiyalar oqimining pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlashmokka. Xitoy va GATT – Jahon Savdo Tashkiloti o'rtasidagi kelishuv jarayonlarini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

1) 1986-1989 yillar; 2) 1990-1995 yillar; 3) 1995-2001 yillar.

Xitoy 1994 yilgacha GATTga kirish maksadida oldiga quyilgan quyidagi shartlarning barchasini bajardi: tashqi savdoni direktiv rejalashtirishni kamaytirish, litsenziyaga ega va kvotalangan tovarlar sonini qisqartirish, turli eksport subsidiyalarini bekor qilish, yagona soliq tizimi, milliy valyuta suzib yuruvchi boshqaruv kursini joriy qilish va boshkalar. 1995 yildan keyin Xitoyning Jahon Savdo Tashkiloti bilan muzokaralari, birinchidan, AQSH va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi, ikkinchidan, 1995 yilda GATTning Jahon Savdo Tashkilotiga almashtirilishi oqibatida murakkablashib bordi. Kelishuvlarning oxirgi bosqichida Xitoy oldiga quyidagi asosiy masalalar quyildi³⁰:

- eksport - import rejalarni xisobga olgan xolda direktiv rejalashtirish tizimini bekor qilish;

³⁰ Sadibekova B.Dj. “ Xitoy iqtisodiyoti “ Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011.

- narx belgilashni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish (bu savollarni o'rganish dempingga qarshi tadqiqotlar jarayonlari bilan bog'liq);

- tashqi savdo rejimi, litsenziyalash va kvotalash tizimi, davlat xaridlari bozorining ochikligi;

- eksportni subsidiyalashni yo'q qilish, davlat korxonalarini moliyaviy qo'llab - quvvatlash va qishloq xo'jaligini proteksionistik ximoya qilishdan voz kechish.

- Jahon Savdo Tashkilotiga kirishda Xitoy ko'pchilik xollarda rivojlanayotgan mamlakat maqomini olish va o'zi uchun quyidagi vakolatlarni ta'minlashga muvaffak buldi:

- tashqi savdoni bosqichma - bosqich erkinlashtirish, import bojlarini kamaytirish, Jaon Savdo Tashkiloti qoidalariga muvofiq keluvchi milliy qonunchilikni shakllantirish uchun o'rtacha 3 - 5 yilga teng o'tish davri xuquqiga ega bulish;

- rivojlanayotgan mamlakat sifatida qishloq xo'jaligini maxsulotlar narxining 8,5% miqdorida subsidiyalash³¹;

- eksportga yo'naltirilmagan ichki ishlab chiqarishni subsidiyalash xuquqi (JST bilan kelishuvga muvofiq);

- maxsulotlarning asosiy turlariga davlat tomonidan narx o'rnatish va tartibga solish xuquqini xisobga olgan xolda davlat savdo tizimini saqlash xuquqi;

- xorij kapitali uchun xizmatlar soxasini ochishda cheklovlarni saqlash xuquqi.

Jahon Savdo Tashkiloti oldida Xitoy tomonidan qabul qilingan umumiy majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- bozor iqtisodiyoti mamlakatlari xalqaro qoidalariga muvofiq keluvchi milliy qonunchilikni tartibga solish;

³¹ Потапов М. Вступление КНР в ВТО условия присоединения и последствия для китайской экономики //Внеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. –М. международные отношения. 2004.С.88

- eksport va ichki bozorga mo'ljallangan tovarlar savdosi rejimidagi farqlarni bartaraf qilish;
- iqtisodiy siyosatning ochiqqligini ta'minlash;
- xamma kompaniyalarga uch yil davomida mustaqil tashqi savdo faoliyati olib borish xuquqini berish;
- o'tish davrida tashqi savdoni tartibga solish notarif choralaridan voz kechish;
- qishloq xo'jaligi eksportyorlarini xisobga olgan xolda eksportga subsidiyalarni berishni yo'q qilish.

Xitoyda muxim strategik tovarlarni sotish va sotib olish, birlamchi tovar va xizmatlarga narx belgilashda davlat monopoliyasi saqlanib qoldi. Shubxasiz, davlat qo'lida tashqi iqtisodiy siyosatining amaliy dastaklarini saqlab qolishi savdo sheriklariga bosim ishlatish xamda ichki bozor ximoyasi va Xitoy eksportyorlarining xuquqlari buzilganda unga javoban choralarni qo'llashni engillashtirib beradi. Xitoyning Jahon Savdo Tashkiloti oldidagi majburiyatlarini bir necha yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, Xitoy qishloq xo'jalik soxasida tariflarni oshirmaslik va ularning o'rtacha darajasini 31,5% dan 17,4% gacha tushirish majburiyatini olgan.

Xitoy yaqin yillar ichida eksport subsidiyalarini bekor qilib, importning ko'plab moddalari bo'yicha tarif kvotalarini oshiradi. Tarif stavkalari kvotalar doirasida minimal darajada (1-3%), kvotalardan tashqarida strategik maxsulotlar (asosan donli maxsulotlar) buyicha 80% dan 65% gacha pasaytiriladi. Sanoat maxsulotlari bo'yicha esa Xitoy miqdoriy cheklovlarni bosqichma - bosqich bekor qilish, ularning tarif stavkalarini 2005 yiddan 24,6% dan 9,4% gacha pasaytirish va informatsion texnologiyalar to'g'risidagi kelishuvni ratifikatsiya qilish majburiyatini olgan. Informatsion texnologiyalar to'g'risidagi kelishuvning ratifikatsiya qilinishi telekommunikatsion asbob-uskunalar, yarim o'tkazgichlar, kompyuter va kompyuter asbob - uskunalari xamda informatsion texnologiyalar tarmog'ining boshqa mahsulotlari bo'yicha barcha tariflarning bekor qilinishiga olib keladi.

Majburiyatlar borasidagi eng istiqbolli soxa raqobat uchun yopiq xisoblangan xizmatlar soxasidir. Litsenziyalash, kapitalda qatnashish, geografik joylashuv biznesni tashkil etish va tashqi iqtisodiy aloqalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish kabilarga quyilgan to'siqlar bosqichma - bosqich bekor qilinadi yoki nisbatan yumshatiladi. Xitoy telekommunikatsiya, moliya xizmatlari, taqsimot va shunga o'xshash tarmoqlarni xorijiy xizmat ko'rsatuvchilar uchun ochishni va'da bermoqda.

Xitoy o'z bozorlarini ochish bilan birga savdo va investitsiya rejimini erkinlashtirish majburiyatini xam olmoqda. Xitoy mamlakat miqyosida yagona savdo siyosatini yuritish va faqat e'lon qilib bo'lingan qonunlar, me'yoriy chora - tadbirlar bo'yicha sanksiyalarni ta'minlashni, barcha taqiqlangan subsidiyalarni (davlat korxonalariga ajratiladigan subsidiyalar bilan birgalikda) bekor qilish, tashqi savdo bilan shugullanish xuquqini erkinlashtirish va davlat savdo kompaniyalariga xam o'z operatsiyalarini tijorat asosida amalga oshirish kabi majburiyatlarni olgan. Xitoyning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan bog'lik xolda AQSH Xitoyga doimiy eng qulaylik tug'dirish rejimini joriy etdi. Bunga qadar Xitoyga nisbatan qo'llanilashgan eng qulaylik tug'dirish rejimi makomining muddati xar yili AQSH Kongressi tomonidan uzaytirib turilgan.

Xitoyning ba'zi savdo xamkorlari qator tovarlar bo'yicha miqdoriy cheklovlarni bekor qilishlariga to'g'ri keladi. To'qimachilik va kiyim - kechak maxsulotlari bo'yicha kvotalar to'qimachilik xamda kiyim - kechak bo'yicha kelishuvga muvofiq bosqichma - bosqich bekor qilinadi. Xitoy Jahon Savdo Tashkiloti doirasida savdo kelishmovchiliklarini bartaraf etish, savdo qoidalari va savdoni erkinlashtirish to'g'risidagi ko'p tomonlama kelishuvlarda qatnashish xuquqini qo'lga kiritdi³².

Xitoy uchun bozorlarga kirib borishdagi qiyinchiliklar quyidagi uchta diskriminatsion xolatlar bilan bog'liqdir³³:

³² Sadibekova B.Dj. "Xitoy iqtisodiyoti" Toshkent davlat sharshunoslik institute, 2011

³³ Китай "ВТО"

Birinchidan, 12 yil davomida aniq, turdagi tovarlar bo'yicha qullaniladigan vaqtinchalik ximoya mexanizmi doirasida Xitoyning savdo xamkorlari bu mamlakatdan kirib kelayotgan importga nisbatan " bozorlar faoliyatini ishdan chiqarish yoki ishdan chiqarishga xavf tug'dirishi " mumkin degan sababga ko'ra cheklovlar joriy etishlari mumkin. Jahon Savdo Tashkilotining odatdagi standart qoidalari bo'yicha importga nisbatan cheklovlar faqat " jiddiy ziyon yetqazish yoki yetqazish xavfi " tug'dirsa qo'llanishi lozim. Bundan tashqari, bironta mamlakat ximoya mexanizimini qo'llasa, qolgan mamlakatlar xam ziyon yetqazish xavfini isbotlamasdan bu mexanizmni qo'llashi mumkin.

Ikkinchidan, 2005 yilning 1 yanvaridan Xitoydan import qilinayotgan to'qimachilik va kiyim - kechaklarga nisbatan barcha kvotalar bekor qilinishi lozim bo'lsada, maxsus ximoya mexanizmi 2008 yilning oxiriga qadar amal qildi. Mazkur mexanizm importer mamlakatlarga Xitoydan kirib kelayotgan importni bu import ichki bozorda ziyon yetqazish xavfini tug'dirgan xollarda cheklash imkonini berdi.

Uchinchidan, Xitoy eksporterlari demping baxolaridan foydalanganlikda ayblanishlari mumkin. Importer mamlakatlar o'xshash tovarlar bo'yicha uchinchi mamlakatlar baxolaridan Xitoy firmalari demping baxolarini qo'llagan yoki qo'llanmaganliklarini aniqlash maqsadida foydalanishlari mumkin.

Xitoy yuqorida qayd etib o'tilgan yutuqlarga erishishi uchun iqtisodiyotda qo'shimcha tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishi lozim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, xitoyning mexnat sig'imkorligi yuqori tarmoqlarida (to'qimachilik va kiyim - kechak sanoati) ishlab chiqargan xajmi ortib boradi, yukori proteksionistik to'siqlar bilan ximoya qilinadigan tarmoqlarda (avtomobil va neft-kimyo sanoati) esa qisqarib boradi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida xam ishlab chiqarish xajmi er sig'imkorligi yuqori donli ekinlar xisobiga qisqarishi kutilmoqda. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi samarasiz davlat sektori ichki bozorga xorijiy firmalarning kirib kelishi munosabati bilan kuchli raqobatga uchraydi. Iqtisodiyotning yanada

erkinlashtirilishi oqibatida iqtisodiyot miqyosida raqobat kuchayadi, mexnat unumdorligining jadallashadi.

Ko'plab tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sanoat jixatdan taraqqiy etgan mamlakatlar Xitoyning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo ekanligidan manfaatdor bo'lishlari mumkinligini ko'rsatmoqda. Qator sanoat jixatdan taraqqiy etgan mamlakatlar jumladan, AQSH va Avstraliya Xitoyning qishloq xo'jalik bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Mazkur mamlakatlarning kapital va texnologik sig'imkorligi yuqori tovarlarining Xitoy qayta ishlash sanoatiga eksporti xam ortib boradi. Xitoy va jaxon iqtisodiyoti uchun Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish oqibatlari qanday bo'ldi ? Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lganidan keyingi yillar davomida iqtisodiy o'sishning jadal sur'atlari (yiliga 8 -10%) natijasida Xitoy YaIM miqyosi bo'yicha (joriy valyuta kursi xisobida) Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyani ortda qoldirib dunyoda 4 – o'ringa chiqdi. 2001 yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikni qo'lga kiritgan vaqtda 509,6 mlrd dollarni³⁴ tashkil qilgani xolda, bu ko'rsatkich 2010 yilda 2 trln. 973 mlrd. dollarga teng bo'ldi va 2009 yilga nisbatan 34,7% ga o'sdi³⁵.

Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2010 yil Xitoyning jaxon savdosidagi ulushi taxminan 10,4% ni tashkil etdi va tashqi savdo aylanmasi miqdori bo'yicha AQSHdan keyingi ikkinchi mamlakatga aylandi. Jahon Savdo Tashkilotiga kirish oqibatida Xitoy eksportining eng raqobatbardosh tovarlari – to'qimachilik kiyim - kechak, o'yinchoqlar, elektronika, keramika va plastmassa buyumlari, kimyo va farmatsevtika sanoati maxsulotlarining jaxon bozoriga kirib borishiga keng yo'l ochib berildi.

Bundan tashqari, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik Xitoy mexnat resurslari eksportini yanada rag'batlantirdi. Xitoyning jaxon xo'jaligidagi ulushining ortib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri - mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar xisoblanadi. Jalb etilayotgan xorijiy kapitalning


³⁴ <http://www.china.org.cn/russian>

³⁵ <http://www.china.org.cn/russian>

asosiy qismi xorijda yashovchi Xitoy diasporasiga tegishli "xuasyao" kapitalidir. Singapur, Gonkong va Tayvandan Xitoyga yo'naltirilgan to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar jami investitsiyalarning yarmini tashkil etadi.

Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda maxsus iqtisodiy xududlar aloxida o'ringa ega. Mamlakatda Erkin Iqtisodiy Zonani tashkil etish tashabbusi 1979 yilda Xitoy Kommunistik Partiyasi MK tomonidan ilgari surilgan va dunyo mamlakatlari bilan ilmiy - texnik xamkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan. Iqtisodiy ochiqlik dengiz soxili, mamlakatning ichki qit'a va chegaraga tutash rayonlari, Yanzi daryosi xavzasi orqali amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalar asosan maxsus tashkil etilgan kompleks iqtisodiy xududlar orqali kirib keladi. Xitoy erkin iqtisodiy zonalarini yaratishda katta xajmdagi kapital quyilmalar talab etilgan va bu quyilmalar bosqichma - bosqich amalga oshirilgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investitsiyalarnyng 70% dan ortiq qismi bu xududlarga yo'naltirilgan. Misol uchun, 2007 yilga kelib EIZning yalpi ichki maxsulotdagi ulushi 59,5% ni tashkil etdi (1.3.4-jadval).


Eksport ishlab chiqarish xududlarining YaIMdagi ulushi, diagramma va jadval ko'rinishida %³⁶



Eksport ishlab chiqarish xududlarida korxonalarining tarmoq tarkibi taxlili ko'rsatilishicha, 2007 yilda ushbu xududlardagi korxonalarining mamlakatdagi jami korxonalar sonidagi ulushi sanoatda 62,5% ni tashkil etgan (1.3.5-jadval).

1.3.5-jadval.

**Xitoy eksport ishlab chiqarish xududlarida korxonalarining tarmoq tarkibi 2012y diagramma va jadval ko'rinishida .
(jamiga nisbatan foiz xisobida)³⁷**



³⁶ www.china.org.statisticinfo.com

³⁷ www.china.org.statisticinfo.com

Xorijiy investitsiyali korxonalar, individual va xususiy korxonalar iqtisodiyotning boshqa sektorini tashkil etadi, mulkchilikning davlat shakliga esa davlat va jamoaviy korxonalar kiradi. 2008 yil ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda 28,2 mln individual sanoat - savdo xo'jaliklari³⁸ va 6,6 mln. xususiy firmalar³⁹ mavjud. Bu mulkchilik shakli korxonalarining oxirgi yillarda tez sur'atda o'sishi, birinchi navbatda, davlat sektori ulushining qisqarishi xisobiga ro'y bergan va 1999 - 2004 yillarda xususiy tadbirkorlikgi to'la legallashuvi orqali ta'minlandi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida TTXI uchun qulay investitsiya muxitini yaratgan mamlakat Xitoy xisoblanadi. Masalan, 2005 yilda mamlakat xissasiga jami jaxon TTXIning 8% i (72,4 mlrd. doll.). 2006 yilda 5% i (69,5 mlrd. doll), 2008 yilda esa 10,1% i to'g'ri kelgan. Xitoy iqtisodiyotiga TTXI XX asrning 80 - yillaridan yuqori su'ratlarda kirib kela boshlagan. 1980 yilda Xitoy iqtisodiyotida jamg'arilgan TTXI 1 mlrd. dollarni, 10 yildan keyin 21 mlrd. dollarni, yana 10 yildan keyin esa 193 mlrd. dollarni tashkil etgan. Oxirgi yillarda bu ko'rsatkich 1,5 martaga ortgan va hozirda 293 mlrd. dollarga teng deb, baxolanmoqda⁴⁰

Xitoy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarga tuzatishlar kiritildi. Bu o'zgarishlar Xitoy YaIMning o'sish sur'ati eksportga emas, balki ichki omillarga bog'liq, bo'la boshlagan davrda (2005) boshlandi. Mamlakatda o'rta sinf vakillarining jadal suratlarda ko'payishi (yiliga 10-15 mln. kishi) va urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi (20-30 mln.) ichki iste'molning yuqori su'ratlarda o'sishiga turtki bo'lmoqda. Taxlillar ko'rsatilishicha, yangi xitoy iste'molchilar avlodining aksariyat qismi 2000 yillarda xayotlarida birinchi marta muzlatgich, televizor, kompyuter, uyali aloka avtomobil, uy - joy, mamlakat va xorij bo'ylab sayoxat qilish kabi tovarlar va xizmatlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishdilar.

³⁸ <http://russian.sme.gov.cn/>

³⁹ <http://russian.china.org.cn/>

⁴⁰ Шванкадр К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах БРИК. \ Банковское дело, №2, 2008.

Investitsion talabning o'sishi davlat tomonidan mamlakat bo'ylab zamonaviy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaratishga qaratilgan faol siyosat olib borishini rag'batlantirdi. Aynan ichki iste'mol Xitoyning 2008 - 2009 yillarda jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi ta'siridan katta yo'qotishlarsiz chiqib ketishiga imkon yaratdi. Yangi Xitoy iqtisodiy rivojlanish modeli⁴¹ning yana bir tarkibiy elementi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlariga (innovatsiyalar, xayot sifati, atrof - muxit muxofazasi) erishish xisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning XII besh yillik rejasi (2011 - 2015) iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritishi kutilmoqda.

Birinchidan, bu davrda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab - quvvatlash emas, balki barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlanib qolish vazifasi qo'yilgan. YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini 8% (XI besh yillikda - 11,2%) atrofida ta'minlash rejalashtirilgan.

Ikkinchidan, axolining ijtimoiy - iqtisodiy turmush darajasini oshirishga erishish. Shaxar va qishloq axolisi daromadlarini oshirish dinamikasini iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan tenglashtirish, ish xaqini mexnat unumdorligini yaxshilash evaziga oshirish ko'zda tutilmoqda. Shaxar va qishloq axolisining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlarini yiliga 8% ga oshirish rejalashtirilgan. Xitoyda ishsizlik darajasini pasaytirish uchun XII besh yillik⁴²da xususiy tadbirkorlik, ishchilarni kasbiy jixatdan qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, oliy ta'lim maktabi bitiruvchilari va qishloq joylardan kelayotgan ishchilarni ishga joylashtirish davlat dasturlarini amalga oshirishni rag'batlantirish rejalashtirilgan. Misol uchun, 2009 yilda armiyada xizmat qilish 130 mingta bitiruvchi ishga qabul qilingan. Umuman, XII besh yillikda shaxar axolisi uchun 45 mln, qishloq axolisi uchun esa 40 mln, ishchi o'rin yaratish ko'zda tutilgan bo'lib, 2011 - 2015 yillarda ishsizlik darajasini 5% atrofida saqlab turish rejalashtirilgan. Inflyatsiyaga karshi kurash tadbirlari axoli turmush

⁴¹ Sadibekova S.Dj. Xitoy Iqtisodiyoti. Toshkent davlat sharqshunoslik institute 2011y.

⁴² Xitoy Bosh statistika qo'mitasi,- Pekin.

darajasini oshirish va o'rta sinfni yanada kengaytirish bilan bog'liq. 2008 - 2011 yillarda Xitoy xukumati narxlarning o'sish sur'atlarini o'rtacha 4 - 5% atrofida saqlab qolishga erishdi

Shunga qaramasdan mamlakatda quyidagi sabablarga ko'ra inflyasiya darajasining o'sib ketish xavfi saqlanib qolmoqda:

- tovarlar jaxon narxining o'sishi;
- mamlakat ichida pul massasining yuqoriligi;
- energiya resurslari, xomashyo, er, ishchi kuchi va boshka ishlab chiqarish omillari tannarxining ortishi;
- ish xaqi axoliga ijtimoiy va tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlarining ko'payishi.

Xitoy iqtisodiyotining texnologik tarkibini o'zgartirish. Mamlakatda innovatsion kurs milliy innovatsiya strategiyasi sifatida talqin etilmoqda. 2020 yilga borib Xitoy innovatsion davlatga, 2050 yilda esa fan va texnika sohasida jaxondagi etakchi mamlakatga aylanishi zarur.

Xitoyda davlat tomonidan maksimal darajada qo'llab - quvvatlanishi lozim bo'lgan yuqori texnologik tarmoqlar belgilab olingan:

- uyali aloqa;
- raqamli televidiniya;
- keng miqyosli internetga kirish;
- yangi avlod displeylari;
- biofarmatsevtika;
- yangi materiallar;
- energiyaning yangi manbalari;
- axborotlashtirish.

XII besh yillikda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibini optimallashtirish rejalashtirilgan. Iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibi mintaqaviy soliq va ruxsat berish tizimini qo'llash orqali o'zgartiriladi. Yuqori texnologik tarmoqlarga (fan sig'imkorligi yuqori ishlab chiqarish, zamonaviy noishlab chiqarish xizmatlari,

yangi energetika, ekologiya) yo'naltiriladigan investitsiyalar imtiyozlarga ega bo'ladi. Energiya sig'imgorligi yuqori va atrof - muxitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarishga investitsiyalar sarflash qat'iy cheklanadi.

Xorijiy investitsiyalar oqimining aksariyat qismi G'arbiy va Markaziy Xitoy mintaqalariga yo'naltiriladi. Bunda xorijiy investorlar uchun joy tayyorlash maqsadida mintaqaviy soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirishga davlat investitsiyalaridan foydalaniladi.

Xitoyda ijtimoiy soxada barqarorlik ortib bormoqda. Ijtimoiy muammolardan biri kambag'allarga yordam berish siyosatining jamiyatda chuqur tabaqalashuv ortib borayotgan vaqtda amalga oshirgani. Xitoyda yuz minglab millionerlar, o'nlab milliarderlar jamiyatda yangi xayot tarzini shakllantirmoqda. Xozirgi vaqtda Xitoyda shakllangan o'rta sinf yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarni talab qilmoqda. Xitoy iqtisodiyoti keng miqyosda sifatli tovarlar va xizmatlar taklifini ta'minlab bera olmadi. Aksariyat iste'molchilar sifat va dizayn sababli G'arb brendlarini ma'qul ko'rishmoqda va ushbu tovarlar uchun Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan ko'proq pul to'lashga tayyordirlar.

Natijada xitoyliklar tomonidan xorijiy lyuks tovarlarga, xususan, obro'li kiyim - kechaklarga sarflanayotgan xarajatlar ortib bormoqda. 2020 yilga borib Xitoyning jaxonda modaga aylangan kiyim - kechaklar sotib olish bo'yicha ikkinchi yirik bozorga aylanishi bashorat qilinmoqda. Bu bosqichda bozorning xajmi 60 mlrd. dollardan 200 mlrd. dollargacha ortadi. Xozirda xitoy iste'molchilari o'z daromadlarining 40% ini modaga aylangan kiyim - kechaklar va aksessuarlar sotib olishga sarflamoqda.

Xitoy jaxonda millionerlar uchun yuqori klassdagi tovarlar sotish xajmi bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Misol uchun 2011 yil yanvardan aprelgacha sotilgan Bentli avtomobilining xar to'rtinchisi Xitoyda sotilgan⁴³. Umuman, Xitoyda Bentli avtomobillarini sotish xajmi 66% ga o'sgan. Bundan

⁴³ www.brend.china.org

tashqari, Xitoy biznes - klass samolyotlarini sotish xajmi bo'yicha xam dunyoda ikkinchi mamlakatga aylanishi mumkin.

Jumladan, 2010 yilda Xitoy xissasiga Boeing samolyotlarini sotishning 30% i va Airbus samolyotlarini sotish xajmining 25% i to'g'ri keldi⁴⁴. Xitoyda o'rta sinfning o'sib borayotgan iste'molini qondirishiing yana bir misoli 2015 yilga borib "bitta oilaga — bitta farzand" siyosatining bekor qilinishidir⁴⁵. Xozirda ikkinchi farzand birinchisi tug'ilgandan to'rt yildan keyin va onasining yoshi 28 yoshgacha bo'lsagina jarima belgilanadi. Mamlakatda demografik siyosatning o'zgarishiga iqtisodiy sabablar xam ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, Xitoy axolisi sekin - asta qarib bormoqda, jumladan, 2000 yilda 65 va undan yuqori yoshdagilar jami axolining 7% ini tashkil etgani xolda, bu ko'rsatkich 2009 yilda 8,5% ga teng bo'ldi. 0 dan 14 yoshgacha bo'lganlar ulushi esa 2000 - 2009 yillarda 22% dan 18,5% ga qadar qisqardi. 2020 yilga borib 65 va undan yuqori yoshdagilar soni 250 mln. kishigacha, 2050 yilda esa 440 mln. kishigacha ko'payishi kutilmoqda. Bunda bitta pensiya yoshidagi kishiga 1,7 ta ishlovchi to'g'ri keladi⁴⁶.

Ikkinchidan, Xitoyda tug'ilish darajasi pasayib borish tendensiyasiga ega. Bu o'z navbatida ishchi kuchi qiymatining oshishiga olib keladi.

Axolining qarib borishi va o'sish sur'atlarining pasayishi Xitoyda arzon ishchi kuchining etishmasliliga sabab bo'ladi. Xitoyning 17 ta viloyatidagi 3 mingta qishloqlarida olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, 74% qishloqlarda bironta ishchi qolmagan. Janubin va Sharqiy Xitoyda 90% dan ortiq korxonalarda 10% dan 30% gacha ishchi kuchi yetishmaydi. Xitoy jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozidan jaxon iqtisodiyoti va moliyasidagi o'z pozitsiyalarini mustaxkamlash yo'lida samarali foydalandi.

2011 yil iyul xolatiga ko'ra Xitoy oltin - valyuta zaxiralari xajmi (3,2 trln. doll.) bo'yicha jaxonda birinchi o'rinni egalladi. Xalqaro Valyuta Fondni islox

⁴⁴ Шванкадр К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах БРИК.\\ Банковское дело, №2, 2008.

⁴⁵ www.china.gov

⁴⁶ Шванкадр К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах БРИК.\\ Банковское дело, №2, 2008.

etishning tadbirlari (2013 - 2014) tasdiqlangandan so'ng Xitoy uning uchinchi yirik a'zosiga aylanadi.

Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqirozining boshida (2008) Xitoy Qozog'iston, Mongoliya, Yangi Zelandiya, O'zbekiston, Singapur, Islandiya, Argentina, Indoneziya, Belarussiya, Malayziya, Gonkong va Janubiy Koreya bilan hamda Markaziy osiyo davlatlari bilan kelishuvlar imzolandi⁴⁷. Xitoyda 15 ta 93,8 mlrd. dollar xajmida 15 ta SVOP kelishuvlar mavjud. Boshqa mamlakatlar bilan yuanda to'lovlarni amalga oshirish xajmi 56 mlrd. dollargacha o'sdi. Xitoy kompaniyalarining xorijiy investitsiyalari xajmi 2010 yilda 59 mlrd. Dollarni tashkil etdi.

Moliyaviy resurslar 129 ta mamlakatda joylashgan 125 ta xorijiy kompaniyalarga sarflangan. Xitoy xorijiy kapital quyilmalarini amalga oshirishda birlashish va qo'shib olishlar ulushi keskin oshdi. Misol uchun, 2010 yilda bu turdagi investitsiyalash xajmi 23 mlrd. dollarni yoki xorijiy investitsiyalar xajmining 40% ini tashkil qildi. Xitoyda yangi XII besh yillikning asosiy g'oyasi iqtisodiy o'sish sur'atini xar qanday yo'l bilan ta'minlash emas, balki iqtisodiy o'sish surati, inflyatsiya va bandlik o'rtasidagi balansni qo'llab - quvvatlashdan iborat⁴⁸.

2-BOB. XITOIY IQTISODIY ISLOHOTLARI TAJRIBASINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH MASALALARI

2.1. Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida dastlabki aloqalarning o'rnatilishi

Xitoy bilan O'zbekiston bir necha ming yillardan beri savdo – iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirib keladi. O'zbekiston xamda Xitoyni tarixiy sivilizatsiya, ikki davlatning bir – biriga yaqin sharqona xususiy o'xshashliklari qadimdan birlashtirib keladi. Agar tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak Yo'li Xitoyni Europa mamlakatlari bilan bog'lagan. Ma'lumki Buyuk Ipak Yo'lining

⁴⁷ Melibayeva G.A., Gazyev F.Sh.. "Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi". O'quv qo'llanma. Toshkent 2011. 120 bet

⁴⁸ Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.

ikki asosiy yoʻnalishi oʻlkamizning qadimiy nomi Movarounnahr hududidan oʻtgan. Bu esa albatta ikki qadimiy halq, ikki millat, ikki buyuk davlatlarning savdo – sotiq ishlarini olib borishda, turli sohalarda hamkorlikni yoʻlga qoʻyishda muhim ahamiyat kasb etgan. “Xitoy – buyuk davlat. Xitoyda sodir boʻlayotgan buyuk oʻzgarishlarni kuzatar ekanmiz, er kurrasining har toʻrtinchi insonini oziq – ovqat bilan taʼminlayotganini, undan tashqari mamlakatda oʻtkazilayotgan iqtisodiy, siyosiy islohotlar katta – katta oʻzgarishlarga olib kelayotgani, aholining turmush – tarzi yilda – yilga oʻsayotgani koʻrib, bu davlatga boʻlgan hurmat va ehtiroming ortib boraveradi” – deb taʼrif bergan hurmatli yurtboshimiz I.A. Karimov⁴⁹.

Bu ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlik masalalari oʻzbek halqi uchun ham, xitoy halqi uchun ham bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. 1992 yil 2 yanvarda Xitoy Tashqi Iqtisodiy va Aloqalar Vaziri tomonidan ikki davlat oʻrtasida diplomatik aloqalar oʻrnatish toʻgʻrisida bayonnomaga imzo qoʻydi. Shu yili 15 oktyabrdan Oʻzbekiston Respublikasida Xitoy Xalq Respublikasining elchixonasi faoliyat olib bora boshladi.

Xitoyning poytaxti Pekin shahrida Oʻzbekiston Respublikasining elchixonasi 1995 - yil 6 maydan boshlab faoliyat olib bormoqda. Ikki tomonlama hamkorlik ijtimoiy hayotning, jamiyatning barcha qirralarini shu jumladan, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy, anʼanaviy sohalarni qamrab oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Xitoy Xalq Respublikasiga 1992 – yildan to 2014 – yillargacha tashrif buyurgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi va XXR oʻrtasidagi aloqalarning mustahkamlanishida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining ham oʻrni beqiyos⁵⁰.

1992 - yilda Iqtisodiy - Savdo shartnomasining imzolanishi iqtisodiy aloqalarining poydevoriga aylandi. Oʻzbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq

⁴⁹ Karimov I.A.. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011.

⁵⁰ Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.

Respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorligini bir nechta bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi⁵¹.

Birinchi bosqich: mustaqillikning dastlabki yillarini kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Davlat Rahbarining XXRga birinchi rasmiy tashrifi 1992 - yil 13 martda XXR Davlat Rahbari Yan Shankun taklifi munosabati bilan amlaga oshirildi. Tashrif chog'ida ikki davlat o'rtasida dastlabki davlatlararo kommyunike o'tkazildi va quyidagi xujjatlar imzolandi :

- XXR hamda O'zbekisto Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirliklari tomonidan imzolangan konsultatsiyalar protokoli;

- Ikki davlat xukumatlari o'rtasida imzolangan ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, turizm va sport sohalaridagi bitim;

- Ilmiy – texnika hamkorligi to'g'risidagi bitim;

- Temir yo'l, avtomobil va suv transportiga oid xukumatlararo bitim;

- Ikki davlat Qishloq Vazirliklari o'rtasidagi shartnoma;

Hamkorlikni iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha 1994 yil may oyida ikki tomonlama hamkorlik ostida Toshkent shahrida halq xo'jaliklari ko'rgazmasida Xeylunszyan provinsiyasining eksport mahsulotlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Aynan shu davrdan boshlab xukumatimiz tomonidan ikki tomonlama hamkorlik masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu masala bo'yicha hatto O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994 - yil 20 aprelidagi 193 qarori⁵² asosida savdo iqtisodiy hamkorlik komissiyasi tuzildi.

1994 - yil 24 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti XXRga ikkinchi bor rasmiy tashrif buyurgan. Bu tashrif chog'ida ikki davlat o'rtasida deklaratsiya imzolangan. Bu deklaratsiyaning asosini hamkorlikning asosiy prinsiplari, O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtasidagi o'zaro manfaatli bo'lgan hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish masalalari kabilar tashkil qiladi.

⁵¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон – бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: “Ўзбекистон”

⁵² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori 1994 - yil 20 aprelidagi 193 qarori

Bu xujjatda ko'pgina tarmoqlarda xususan energetika, axborot texnologiyalar, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy – texnologik, qonunchilik, huquq, fuqarolik – protsessual, madaniyat, ijtimoiy sohalarda, shuningdek investitsiyalar jalb qilish va ular asosida proektlarni amalga oshirish, undan tashqari davlatlar bir – birining ichki ishlariga aralashmasliklari, mintaqada hamda dunyoda tinchlik va barqarorlik siyosatini olib borish kabi masalalar o'z aksini topadi. Birinchi bosqich davrida ya'ni 1992 – 1995 yillar davomida hamkorlik tor doirada bo'lib asosan samolyotlar eksport qilindi va eksportdan tushgan valyuta hisobiga halq iste'mol mollari import qilindi.

Hamkorlikning ikkinchi bosqichi 1995 - yildan boshlab o'z aksini topadi. Chunki shu yili ya'ni 1995 yil 6 mayda Pekinda O'zbekiston Respublikasining elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Bu esa ikki davlat aloqalarini yanada mustahkamladi. Birinchi bosqichda ikki davlat aloqalarining huquqiy zmini barpo etilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda savdo – iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yuqori darajaga chiqarish masalasi asosiy vazifa qilib olindi.

Bunda e'tiborni faqatgina savdoga emas balki, iqtisodiy hamkorlikka, qo'shma korxonalar ochishga, erkin kapital harakatini yo'lga qo'yishga qaratildi. Hamkorlikning uchinchi bosqichi 2001 yildan ya'ni Shanhay Hamkorlik Tashkiloti tuzilgandan keyin boshlandi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi bosqida ikki yoqlama hamkorlikning qonuniy bazasi yaratildi, ikkinchi bosqichda esa iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish boshlandi hamda uchinchi bosqichda esa asosiy e'tibor yo'lga qo'yilgan hamkorlikning nafaqat iqtisodiy sohada balki, boshqa sohalarga ham ahamiyat berib uni yanada ham rivojlantirishga qaratildi. 2001 - yilda O'zbekistonga Davlat kengashi rahbari o'rinbosari Li Lansin boshchiligida delegatsiya tashrif buyurgan. Tashrif chog'ida davlatlararo 5 mln. yuan (625 ming AQSH \$) badalsiz yordam shartnomasi imzolandi.

Bu mablag'lar ilmiy – texnik va savdo – iqtisodiy hamkorlikni olib borish uchun yo'naltirilgan. Shu yildan boshlab g'arbiy sohada ham hamkorlik

yo'lga qo'yila boshlandi. 2001 yilda harbiy delegatsiya tashrif buyurgan. Unda 1 mln. AQSH \$ miqdorida O'zbekiston tomonidan qurol sotib olish shartnomasi imzolangan edi. Shu davrgacha savdo va iqtisodiy sohalarda 40 dan ortiq shartnoma va xujjatlar imzolangan.

Ulardan eng asosiylari Toshkentda yangi metro liniyalari qurilishini moliyalashtirish va Toshkent xalqaro aeroportini rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish shartnomalaridir. 2001 – yilgacha Respublika hududi bo'ylab Xitoyning 100 dan ortiq korxonalari ro'yxatdan o'tgan. Faqat 40 tasi faoliyat olib borgan. 2001 - yilda Buxoroda yirik ipak matolarini qayta ishlaydigan fabrikalar uchun yangi texnika va texnologiyalar sotib olish shartnomalari imzolangan.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek “Buning asosiy maqsadi mana shu fabrikalarda ishlab chiqariladigan ipak matolarining sifatini oshirish va jahon bozoriga chiqishdan iboratdir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi o'tish davrida rivojlanib borayotgan davlat. O'zbekiston Respublikasi kelajakda istiqbolli hisoblanadi. Sababi o'zimizga etarli darajada xom – ashyoimiz, shuningdek arzon va yuqori malakali mehnat resurslariga egamiz. Ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'yish uchun yuqori sifatli texnika va texnologiyalar, jahon standart va andozalariga to'g'ri keladigan qurilmalar sotib olish zarur”⁵³.

Bugungi kunga kelib ana shunday texnologiyalar ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy etakchi mamlakatlardan biriga aylandi. Shuning uchun ko'pgina tadbirkorlar ishlab chiqarish texnikalarini aynan Xitoydan olib kelmoqdalar. Sababi arzon va sifati yuqori. Bugungi kunga kelib Xitoy bilan olib borilayotgan hamkorlikda ancha ishlar amalga oshirildi. Bugungi kundagi davlat darajasidagi hamkorlik asosan neft va gaz sohasiga qaratilmoqda.

Chunki Xitoyning energiya manbalariga bo'lgan talabi kundan – kunga yuqori sur'atlarda o'smoqda. Neft sohasida Xitoy investitsiyasi hisobiga yangi CNPC Silk & Road korxonasi tashkil etilgan. Undan tashqari. Ikki

⁵³ Karimov I.A.. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011

davlat o'rtasida "O'zbekiston – Xitoy " gaz quvirini qurish shartnomasi imzolangan. Bu shartnomadan tashqari "Uzbekneftegaz" va XXRning milliy neft korporatsiyalari o'rtasida "Mingbuloq" neft konida geologorazvedka ishlarini olib borish uchun shartnoma imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi savdo – iqtisodiy aloqalari nafaqat o'zaro almashish xususiyatiga ega bo'lishi lozim, balki O'zbekistonning xom – ashyo eksporti xususiyatini o'zgartirish va uni tayyor sanoat mahsulotlari bilan to'ldirish imkoniyatlarini beradigan o'zaro hamkorlik munosabatlari darajasiga ko'tarish lozimdir.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi ta'minlanib, undagi tovar ayirboshlash, mahsulotlar raqobatbardoshligining oshishi, mamlakatning jahon bozorida ishtirokining chuqurlashib borishi, halqaro maydonda mavjud vaziyatning qulay va beqaror sharoitda savdo iqtisodiy hamkorlikning turlarini ham o'zgarishiga olib keladi. O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy munosabatlarini juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan strategik va istiqbol katta bo'lgan munosabatlar deb qarash mumkin.

Yildan – yilga davlatlararo delegatsiyalar almashinuvi oshib bormoqda. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi savdo – iqtisodiy hamkorlikdagi eng asosiy muammo ikki davlat o'rtasida to'g'ridan – to'g'ri transport korridorining mavjud emasligidir. Bu masalani bartaraf etish ham hozirgi kunda ikki davlat uchun muhim ahamiyatga ega.

2.2. Xitoyning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1992 - yil diplomatik munosabatlar o'rnatgan birinchi Markaziy Osiyo davlati bo'ldi. 2002 - yilga qadar xitoy - o'zbek iqtisodiy aloqalari, asosan, savdo sohasi bilan cheklanib, rasmiy savdo hajmi esa umuman kam bo'lgan.


1992 - 2002-yillar mobaynida Xitoydan yetkazilgan mahsulotlar hajmi bir yilda 114 mln. dollardan oshmagan, tovar aylanmasining o'zi esa bir yilda 136 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Xitoyda amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli iqtisodiy islohotlar, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va doimiy ravishda ortib borayotgan iqtisodiy salohiyat O'zbekiston xamda Xitoy o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xitoyni O'zbekistonning eng muxim va istiqbolli xamkorlaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin. O'zbekistonda 380 dan ortiq qo'shma korxona, 58 ta yuz foizli Xitoy kapitaliga asoslangan korxonalar faoliyat olib bormoqda. Bundan tashkari, mamlakatimizda 65 ta yirik Xitoy kompaniyalarining vakolatxonalari ochilgan bo'lib, ular ikki mamlakat o'rtasidagi savdo - iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga katta xissa kutishmoqdalar.

2011 yilda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi respublika tashqi savdo aylanmasiga nisbatan foizda hisoblaganda 9.6% ni tashkil etgan. Ikkala mamlakat urtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2000 – 2011 yillarda 22 martaga oshgan (2.2.6-jadval).

2.2.6-jadval

O'zbekiston va Xitoy tashqi savdo aylanmasi, mlrd. doll. diagramma.⁵⁴



⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

O'zbekistan eksportining tarkibi quyidagicha: paxta tolasi, voylok, ipak, to'qimachilik maxsulotlarini tayyorlash uchun zarur erituvchi materiallar, xizmatlar, shuningdek, paxta tolasi, mexanik asbob – uskunalar, mebel, kimyoviy tolalar, gazlama, paxta ip - kalava va boshqalar.

Xitoydan import qilinadigan asosiy maxsulotlar tarkibi esa quyidagicha: qora metallar va undan tayyorlangan maxsulotlar, kofe, choy va shirinliklar, mexanik asbob - uskunalar va elektr, poyabzal, kiyim - kechak, to'qimachilik va trikotaj, trikotaj polotnosi, ruda, organik kimyoviy birikmalar, kimyoviy tolalar, plastmassa va plastmassa maxsulotlari, xizmatlar, noorganik kimyoviy maxsulotlar, boshqa metallardan yasalgan maxsulotlar, turli tayyor maxsulotlar va boshqalar.

2007- yilda O'zbekistonning Xitoyga eksporti quyidagilarni o'z ichiga olgan: xizmat ko'rsatish (taxminan 12foiz), rangli metallar (qariyb 19 foiz), paxta tolasi (taxminan 12 foiz), kimyoviy xom ashyo (taxminan 9 foiz), mashina va asbob-uskunalar (qariyb 8 foiz). O'z navbatida, Xitoydan yetkazib berilgan tovarlar asosan, mashinasozlik mahsulotlari (taxminan 54 foiz), xizmatlar (taxminan 18 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari (taxminan 10foiz), kimyo mahsulotlaridan (qariyb 9 foiz) iborat bo'lgan⁵⁵. O'zbekistonda Xitoy hukumatining foizsiz va uzoq muddatli kreditlari, Xitoy Eksimbanki kreditlari xisobidan ijtimoiy soxa va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyixalar amalga oshirilmoqda. Xitoy investorlari O'zbekistonda neft - gaz soxasida faol faoliyat yuritmoqdalar. Jumladan, Xitoy milliy neft - gaz korporatsiyasi (CNPC) Orol dengizi akvatoriyasi, Ustyurt, Buxoro, Xiva va Farg'ona xududlarida geologiya qidiruv ishlarini olib bormoqda (2.2.7-jadval).

⁵⁵ MelibayevaG.A., GaziyeVF.Sh.. “Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi”. O'quv qo'llanma. Toshkent 2011.120 bet

O'zbekiston neft - gaz kompaniyasining xitoylik xamkorlar bilan olib borayotgan loyixalar jadval ko'rinishda.⁵⁶

Investor	Konlar	Kapitaluys shmalariml n,doll.	Faoliyatturi	Qo'shma korxona
XMNGK(CNPC)	Ustyurt, Buxorova Xivaxudud lari	600,0	Geologiyaqidiruvis hlari	"O'zXMNGK"
	Arniyaz, Sardob, Umid, Ustyurt.	47.3		
"Dungshen" (Dong Sheng)	Farg'onavo diysi	113,0	Geologiyaqidiruvis hlari	"O'zDungshen"

Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi muhim hamkori O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi. Uning iqtisodiy barqarorligi, tashqi qarzining uncha katta emasligi, valyuta zaxirasining yetarliligi bilan Xitoyni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi oldida o'z energetika sanoatini rivojlantirish masalasini hal etishda Xitoy tajribasini o'rganish muhimdir va u quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi kerak⁵⁷.

- Xitoyning energetika sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni va uning tarkibiy o'zgarishlarini izchillik bilan o'rganish;
- Xitoy energetik strategiyasini, hususan, uning O'zbekiston bilan bo'lgan munosabatlarini tahlil qilish asosida, o'z energetik strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish;
- Xitoy bilan transport-kommunikatsiyasini rivojlantirish masalalarini hal qilish, hususan, uglevodorodlarni transportirovka qilishda temir va avtomobil yo'llarini birgalikda qurish ishlarini amalga oshirish.

⁵⁶ O'zA.Iqtisod.uz Oz'bekiston va Xitoy hamkorlik loyihalari.uz

⁵⁷ Nigmanov A.U. "XXR va O'zbekiston respublikasining energetika sohasidagi aloqalarining rivojlanish xususiyatlari"/"Ilm-fan va barkamol avlod". "XMI va mamlakatshunoslik" fakulteti bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent 2010-yil. 109-bet

Bundan tashqari, O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy xamkorlik aloqalarida 2009 yilda Transosiyo gaz quvurining ishga tushirilishi muxim xodisa bo'ldi. 7000 kilometr uzunlikdagi Turkmaniston – O'zbekiston – Qozog'iston - Xitoy gaz quvuri bu mamlakatlar o'rtasidagi uzoq muddatli, teng xuquqli va o'zaro manfaatlar tamoyiliga asoslangan an'anaviy xamkorlik ramziga aylandi.

Transport va turizm sohasidagi xamkorlik xam istiqbolli loyixalar tarkibiga kiradi. Buning uchun O'zbekiston o'z xududida zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirmog'i, kelajakda Xitoyni Evropa bilan tutashtiruvchi temir yo'l yo'laklarining ishga tushirilishida nisbiy afzallikka ega bo'lgan munosib tranzit xudud vazifasini o'tamog'i lozim bo'ladi.

Zero, yangi transport yo'laklarining barpo etilishi nafaqat Xitoyning Evropa, Yaqin Sharq, Rossiyaning g'arbiy xududlariga chiqishini, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarinnng xam bu mintaqalar bilan savdo - iqtisodiy aloqalarini mustaxkamlashiga asos bo'la oladi. Bundan tashqari, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan xamkorlikda muayyan maxsulot ishlab chiqarish borasida xalqaro mexnat taqsimoti munosabatlarini tashkil etish va ularda munosib ishtirok etish xam mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston va Xitoy yaqin istiqbolda sanoatning tog' – kon, avtomobil va neft-gaz tarmoqlarida yirik loyixalarni amalga oshirishni rejalashtirilmoqda. Jumladan, "O'zkimyosanoat" DAK Xitoyning "SITIS Ltd." Kompaniyasi bilan 2012 - 2015 yillarda Qo'ng'irot soda zavodining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha Memorandum imzoladi. Ushbu loyixa zavodning ishlab chiqarish quvvatini 1,5 marta - yiliga 150 ming tonnagacha orttirish imkonini beradi.

"O'zbekneftegaz" 2012 yilda Xitoyning CNPC korporatsiyasi bilan birgalikda butadien kauchuklarini ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etishni rejalashtirgan. Mazkur loyixa doirasida yiliga 60 tonna butadien kauchigi olish mumkinligi va uning qiymati 400 mln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Butadien kauchigi "O'zkimyosanoat" DAK va Xitoyning "SITIS Ltd." kompaniyasi bilan birgalikda 2012 - 2016 yillarda tashkil etilishi

rejalashtirilayotgan shina zavodi uchun xomashyo vazifasini o'taydi, loyixa qiymati 155 mln. dollarni tashkil etib, yiliga 1,5 mln. avtoshinalar, 200 ming qishloq xo'jalik mashinalari shinalari va 100 ming pogona metr konveyer lentasi ishlab chiqarish quvvatiga ega buladi⁵⁸.

Bundan tashqari, "O'zbekneftegaz" 2012 yilda mamlakatning janubi – g'arbida joylashgan Gazli xududida gaz konlarini o'zlashtirish uchun Xitoy Eksimbankidan 158,5 mln. dollar miqdorida kredit jalb etishni rejalashtirgan. Ushbu mablag'lar gazni magistral tarmog'iga tashish uchun quvurlar o'tkazish va infratuzilmani rivojlantirish uchun sarflanadi.

Shuningdek, 2011 - 2020 ⁵⁹yillarda umumiy qiymati 1 mlrd. dollarga teng "Qulbeshkak", "Xojiqazgan", "Doyaxotin", "Suzma", "Qumli", "Chegaraqum" kabi konlarini o'zlashtirish loyixalari ishlab chiqilmoqda. Bu loyixalarning amalga oshirilishi 2021 yilga borib yiliga 5 mlrd. kub metr gaz qazib chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy xamkorlikning xozirgi kundagi darajasi, bir tomondan, xar bir mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur xamkorlik ikki mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlariga to'liq mos kelmaydi.

Fikrimizcha, Xitoy iqtisodiyoti mexnat sig'imkorligi yuqori maxsulotlarni ishlab chiqarishda qiyosiy afzallikka, boy tajribaga ega ekanini nazarda tutilsa, O'zbekiston uchun ushbu tarmoqlarda mazkur mamlakat bilan kooperatsion aloqalarni jadallashtirish lozimligi foydali buladi. Diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan beri Xitoy va O'zbekiston ikki daviatning asosiy manfaatlariga taalluqli masalalarda bir-birlarini qo'liab – quvvatlamodalar hamda xalqaro ishlarda o'zaro kelishgan holda qaror qabul qilmoqdalar. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek:

⁵⁸ <http://www.uzinform.uz.news/>

⁵⁹ Uza.uz/uz/politics.uz

"O'zbekiston Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnomani hayotga astoydil tatbiq qilish maqsadidan chekinmaydi, chunki "O'zbekiston - Xitoy munosabatlarini mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va XXR raisi Xi Jin Pin 2014-yil 20-may kuni Xitoy rahbarining Shanhay shahridagi qarorgohida uchrashuv o'tkazdi. Suhbat davomida mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bugungi holatini yuksak baholadi va hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarini belgilashda bunday uchrashuvlar muhimligini ta'kidladilar⁶⁰.

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

XULOSA

Xitoy iqtisodiyotini rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari va boshqa rivojlanayotgan davlatlardan farqi uning bir xilda rivojlanmaganligidir. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri iqtisodiy faol aholining o'sishidir.

Xitoydagi iqtisodiy salohiyat o'sishining yana bir omili bu Xalq xo'jaligiga katta miqdorda kapital quyilmalarining quyilishidir. Asosiy kapitalga qo'shimcha quyilmalar kelib tushdi natijada, uning milliy iqtisodiyotidagi YaIM dagi ulushi ham oshib bordi. Bu o'sish mamlakatda yangi iqtisodiy islohotlarni va yangi hamkorliklar, aloqalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Xitoy yaxlit milliy iqtisod tizimini yaratmay turib, jahon integratsion jarayonlariga qo'shilib ketdi. Milliy iqtisod esa, bu mamlakat xalq xo'jaligidagi emas, balki, jahon xo'jaligining ham katta bo'g'ini hisoblanadi. Ichki bozordagi asosiy tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha chet el kapitaliga korxonalar mamlakatda yetakchi o'rinlarni egallab oldilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xitoy Xalq Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasi hozirda muhim hamkori darajasiga aylanib ulgurgan.

2003-yilda siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnik va madaniy – ijtimoiy rivojlantirish to'g'risida qator hujjatlar imzolanganidan keyin Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi ishtiroki har jihatdan o'sishni boshladi.

Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasidagi eng katta 10 ta yirik qo'shma korxonalar⁶¹:

1. "Elektron hisoblagich" 2004-yilda (O'zbek energo bilan);
2. "UzCnpetroleum" 2005-yilda;
3. "Mingbulokneft" 2008-yilda;
4. "AziaTransGaz" 2008-yilda;

⁶¹Maxmudov E.A. "O'rganilayotgan mintaq mamlakatlarida AKT sohasi" o'quv qo'llanma. Toshkent.: 2013

5. “Timuchin” 2008-yilda (Qashqadaryoda sutkasiga 3800ta shifer ishlab chiqaradi);
6. “Farbayteksnoteks” 2008-yilda (pilla qayta ishlash);
7. “Pengsheng” 2008-yilda (Sirdaryoda keramika ishlab chiqarish bo'yicha);
8. “Aslqog'oz” 2009-yilda (Sirdaryoda qog'oz ishlab chiqarish)
9. “Energozashita silver star” 2010-yilda (electron jihozlarni ishlab chiqaradi);
10. “Kristalfuinindustries” 2010-yilda (qurilish materiallari ishlab chiqaradi).

O'zbekistonning telekommunikatsiya sohasi brogan sari Xitoy kompaniyalari diqqat markazidan o'rin olmoqda. Hozirda O'zbekiston bozorida Xitoyning ZTE, Huawei Technologies Co. Ltd. va Alcatel Shanghai Bell kompaniyalari faoliyat olib borayotgan bo'lib, O'zbekistonda qator loyihalarni amalga oshirmoqdalar.

O'zaro savdo aylanmasi hajmining barqaror o'sib borayotgani ham qiqqatga sazovordir. Masalan, so'nggi 6 yildagi mamlakatlarimiz o'rtasidagi Tovar ayrboshlash hajmi qariyb 6 barobarga oshdi va 2013-yilda 5.2 milliard dollarga yetdi⁶². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyun oyida Xitoyga tashrifi chog'ida 30 dan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan 5.3 mlrd dollardan ziyodroq miqdordagi hujjatlar imzolangan. XXR raisi 2013-yil sentabr oyidagi O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 15 mlrd dollarga teng loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan 31 ta hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlarda 7.7 mlrd dollarlik moliyaviy resurslar, shu jumladan, Xitoy kompaniyalarining 1.3 mlrd dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, ushbu mamlakat banklarining 6.1 mlrd dollarga teng bo'lgan kredit mablag'lari va 0.3 mlrd dollarlik davlat grantlari jalb etish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda xirij kapitali ishtirokidagi 466 ta korxona, jumladan, to'la Xitoy sarmoyasi bilan tashkil etilgan 77 korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda Xitoyning 71 kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan.

⁶²Xitoy va O'zbekiston aloqalari. (UzA.uz)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENT ASARLARI

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 1.2. Karimov I.A.. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
- 1.3. I.A. Karimov. Jahon moliyaiy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: "O'zbekiston", 2009. - 11-bet.
- 1.4. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Узбекистон, 1997.-С.275-276
- 1.5. Выступление Президента Республики Узбекистан И.А.Каримов на саммите ШОС. Ташкент. 2010.
- 1.6. И.А.Каримов. Ўзбекистон – бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: “Ўзбекистон”. 1993. – 128 б.

Maxsus adabiyotlar va darsliklar

- 2.1 Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh. “Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi”. O’quv qo’llanma. Toshkent 2011-yil.120 bet
- 2.2 Maxmudov E.A. “O’rganilayotgan mintaqa mamlakatlarida AKT sohasi” o’quv qo’llanma. Toshkent.: 2010 y
- 2.3 Sadibekova B.Dj. “ Xitoy Iqtisodiy “. O’quv qo’llanma. Toshkent davlat sharqshunoslik institute 2011.
- 2.4 ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок. / под ред С.Ф.Сугырина. –М: Эксмо.2008.С.244
- 2.5 Александр С. Деньги от председателя, или финансовая стабилизация в Китае./Центразия, 07.04.2003. <http://www.cenrasia.ru/>
- 2.6 Синглиц Дж. Сравнение китайской и зарубежной экономических систем. 2001. С.4
- 2.7 Раковский С.Н. Китай в современном мире. // География №18. 2007.
- 2.8 Мировая экономика и международные отношения. №6. 2009
- 2.9 Михеев В. Китай. Мировая экономика и международные отношения.№7. 2004. С.48
- 3.1 Гелбрас В. Россия и Китай в условиях глобального кризиса. //Мировая экономика и международные отношения, №11, 2011.С.66

Internet resurslar

- 4.1 Синьхуа Агентлиги. / <http://www.russian.xinhuanet.com/russian/>.
- 4.2 Деловой журнал "ChinaPRO" - Весь Китай. Статьи / <http://www.chinapro.ru/articles/>.
- 4.3 <http://www.o-kitae.ru/istoriya-ekonomiki-kitaya/ekonomika-kitaya.html>.
- 4.4 <http://www.globalaffairs.ru/numbers/16/4795.html>
- 4.5 www.press-service.uz
- 4.6 <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>
- 4.7 <http://www.UzA.uz>
- 4.8 www.gov.china.com
- 4.9 www.chnastatic.org.com
- 4.10 [http://www.china.org.cn\russian](http://www.china.org.cn/russian)